


# **CHIZMACHILIKDA KONSTRUKSIYALASH ASOSLARI**




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

# CHIZMACHILIKDA KONSTRUKSIYALASH ASOSLARI

*TDPU faxriy professori Ikromjon Rahmonovning mas'ul muharrirligi ostida*



926288  
TOSHKENT 2013

## **ANNOTATSIYA**

Chizmachilik fani bo'yicha yozilgan ushbu metodik qo'llanma pedagogika oliv o'quv yurtlarining 5110800 - «Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi», 5111000 - Kasb ta'limi (5111035 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi) yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan va u yo'nalishning o'quv rejasi hamda fan dasturiga mos keladi.

Unda talabalarida fazoviy tafakkur qilish orqali fazoviy tasavvurlarini o'stirish, oddiy geometrik jismni ko'p elementli model (detal) ko'rinishida shaklantirish yo'llari, detalni ko'p elementlidan bir elementga qaytarish (rekonstruksiya) yo'li, konstrukturlik masalalari, buyumni dastlabki loyihalash masalalari, mashinalarni loyihalashning asosi, berilgan chizmasxema bo'yicha konstruksiyalash (loyihalash) yoritildi va takrorlash hamda loyihalash uchun savollar, mashqlar hamda boshqa zaruriy ma'lumotlar berildi.

Metodik qo'llanmadan chizmachilik o'qitiladigan oliv, KHK larining mashinasozlik, tikuvchilik, tikuv trikotaj buyumlarini ishlab chiqarish texnik texnologgi, temir yo'l muhandisi, dizayn, mebellarni loyihalovchi rassom, madaniy-maishiy buyumlarni loyihalash dizayneri kabi ta'lim yo'nalishlari o'quvchilar, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchi va o'quvchilar hamda konstrukturlik-loyihalash bo'yicha boshlang'ich bilimni olishga intilayotgan texnikaviy dizaynerlar bevosita foydalanishlari mumkin.

### **Taqribchilar:**

Nizomiy nomidagi TDPU «Chizmachilik va uni o'qitish metodikasi» kafedrasi professori v.b.

Rixsiboyev T.

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti «Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» kafedrasi dotsenti, p.f.n.

Xurboyev N. I.

### **Mualliflar:**

TDPU, dotsent v.b.  
Denov xizmat ko'rsatish  
KHK o'qituvchisi  
TDPU, 4- kurs talabasi  
TDPU, 2-kurs talabasi  
TDPU, 1-kurs magistranti  
TDPU, 1-kurs magistranti

Valiyev A.  
Karimova S.Z.  
Jumanova M.  
Mardov S.  
To'rayev X.  
Jiyenbayeva S.

Mazkur metodik qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPU ning 2013 yil 14 martdagি O'quv-uslubiy kengashida № 8-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

## SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o‘z asarlarida yoshlarga yuksak ishonch bildirib, ularni barkamol avlod deb yuksak qadrlaydilar va shunday deydi:  
“*Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq.*

*Buning uchun har qaysi ota-onas, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi*”.<sup>1</sup>

Shu maqsadda mamlakatimizda ta’limning barcha bosqichlarini rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e’tibor berilmoxda. Umumiy o‘rtalama ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim sifatini oshrish uchun bir necha qonun va qarorlar qabul qilinmoqda hamda hayotga tatbiq qilinmoqda. Bundan asosiy maqsad zamonaviy intellektual salohiyatga ega bo‘lgan yoshlarni xalqaro arenada raqobatbardoshligini ta’minlashdir. XXI asr texnika va kompyuter asri bo‘lib, bu davrning insonidan har qanday yangi texnika vositalari bilan “tillasha” bilish, pirovard natijada yangiliklar yarata olish talab etiladi. Bunday salohiyat egasi bo‘lishning dastlabki poydevorlaridan biri grafik savodxonlik va konstrukturlik malakalari hisoblanadi. Kishidagi grafik savodxonlik va konstrukturlik malakalariga ega bo‘lish uchun chizmachilik fanini va undagi loyihalash prisiplarini chuqur egallash kerak bo‘ladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek: «Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki, endi unda harbiy qudrat emas, balki intellektual

<sup>1</sup> I.A Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T., “Ma’naviyat”, 2008. 61-bet.

salohiyat, aql-idrok, fikr, ilg‘or texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi»<sup>2</sup>.

Bugungi kun talabi yosh avlodga beriladigan ta’lim-tarbiyani kelajakka, ijodiy kuchlarni rivojlantirishga, fan-texnika taraqqiyotining istiqboliga muvofiqlashtirish zarurligini taqozo etmoqda. Shuning uchun talabalarda loyihalashga bo‘lgan qiziqishni orttirishda ijodiy muhitni yaratish lozim bo‘ladi. Ma’lumki, ilmiy texnikaviy rivojlanish ko‘p jihatdan texnikaviy loyihalashga asoslangan. Texnikaning rivoji chizmalarsiz amalga oshmaydi. Buning uchun chizmachilikni o‘qitish jarayonida va har bir grafik ishni bajarishda o‘rganuvchilarda ijodiy yondashish (loyihalash) elementlarini singdirib borish zarur. Masalan, detalning ko‘rinish (proyeksiya)larini chizishda undagi elementlar nima uchun kerak, boshqacharoq qilib bajarsa bo‘lmaydimi kabi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qilish va ular bilan hamkorlikda javob izlash, grafik ishni chizma bichimiga mustaqil joylashtirish (kompozitsiya tuzish), ya’ni dizayn talabida ko‘rkam bo‘lishiga erishish kabi masalalarini talabalar bilan muhokama qoish kabilar.

Texnika va pedagogika oliy ta’lim muassasalarida chizma geometriya va muhandislik grafikasining fan sifatida o‘qitilishining asosiy sababi, politexnik ta’lim berish va zamonaviy texnikaviy taraqqiyotga kirib borisnga intilishni tarbiyalashdan ibotat bo‘lmog‘i lozim. Lekin dizayn talabidagi loyihalashga juda kam soat ajratilganligi (texnika oliy o‘quv yurtlarida deyarli dars soati kiritilmagan), vaqtning yetishmasligi tufaylidir, natijada talabalarda yetarli bilim, ko‘nikma va malakaviy havas uyg‘otilmay qoladi.

Ushbu chizmachilik fanida konstruksiyalash (loyihalash) asoslari metodik qo‘llanmasi ta’lim yo‘nalishlarida talabalar loyihalash byurosi (LB (KB))ni tashkil qilishga asos bo‘la oladi, degan umidda yozildi.

Qo‘llanma chizmachilikni o‘qitishdagi kamchiliklarni bartaraf etish va bu fanni o‘qitish jarayonining qiziqarli bo‘lishiga imkon yaratadi.

Bu qo‘llanmadan chizmchilik va tasviriy san’at hamda mehnat o‘qituvchilar tayyorlaydigan kollej, institut, universitet talabalari va o‘qituvchilar foydalanishlari

<sup>2</sup> Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-tom. -T: “O‘zbekiston”, 1999. –98 bet.

maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, OTM larining bitiruvchilari o'zlarining bitiruv malakaviy (diplom) ishini qiziqarli va sifatli bajarishda foydalanishlari mumkin.

Fazoviy tasavvur qilish inson ongida shakllangan obrazni ko'z oldiga keltirish va fazoviy tafakkur etish inson ko'z oldiga keltirgan obrazni tahlil qilish yoki u bilan muloqotda bo'lishi mumkin.

Metodik qo'llanmaning I bobini 1, 2, 3, 5, 6 va II bobining 2, 3-§ larini A.Valiyev, I bobni 7, 8, 9 va II bobni 4-§ larini A.Valiyev va M.Jumanova, S.Z.Karimova, II bobning 5, 6-§ larini A.Valiyev va S.Mardovlar yozishgan. II bobning 1-§ va 3-§ idagi 98-134 betlarni A.Valiyev, S.Z.Karimova, X.To'rayev va S.Jiyenbayevalar hamkorlikda tayyorlashgan.

Ko'plab buyumlar tarkibida ko'p uchraydigan turli biriktirishlar (salnikli, klapansli va probka li qurilmalarning chizmasini, chambarakni shpindelga biriktirish usullarini chizish)ni loyihalashni o'qitishdag'i amaliy ahamiyatini hisobga olgan holda I bobning 10-§ idagi material A.To'xtayev va Y.Abramyanlar tomonidan yozilgan "Mashinasozlik chizmачiligidan ma'lumotnoma" (T., "ILM ZIYO", 2010-262 bet) o'quv qo'llanmasidan olingan.

Metodik qo'llanmani sinchiklab o'qib, uning mazmunini yanada boyitishga qaratilgan maslahatlari va taqrizlari uchun Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining dotsenti N.I.Xurboevga, Nizomiy nomidagi TDPU ning faxriy professori J.Rahmonov, professor v.b. T.Rixsiboyev, dotsentlar P.Adilov, A. Ashirboevlarga samimiy minnatdorchilik izhor qilamiz.

Qo'llanmada o'quvchi va talabalar mustaqil bajarishlari uchun loyihalashga oid ko'plab masalalar keltirilgan. Ushbu masalalarning yechimini har bir kishi o'z intellektual salohiyatidan kelib chiqib aniqlaydi, to'g'riroq'i loyihalaydi va uning javoblari tabiiyki turlicha bo'ladi. Shuning uchun masala yechimini aniqlagan o'quvchi, talaba va chizmачilik faniga qiziquvchilardan uni quyidagi manzilga yuborishlarini iltimos qilamiz. Keyinchalik yuborilgan masala yechimlaridan tashkil topgan ko'p variantli namunalar to'plamni yaratish imkoniyati tug'iladi va undan mamlakatimiz yoshlari amaliy foydalangan bo'lar edi.

*Bizning manzil:* Toshkent shahri, 700100, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy,  
«Chizmачilik va uni o'qitish metodikasi kafedrası», telefonlar: 255-49-52 (dekanat),  
252-68-71 (kafedra).

**Mualliflar**

## KIRISH

Inson faolivatinining barcha sohalarida yetarli yuqori darajada fazoviy tasavvur qilish va fazoviy tafakkur etish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur. Hech bir konstruktur (loyihachi) ongida murakkab mexanizm yoki mashinani to‘liq (ipidan ignasigacha) ko‘z oldiga keltira olmasligi mumkin. Ammo loyihalash jarayonida turli chizmalar chizish hisob-kitob qilish orqali ba’zi bir elementlari umumiy ko‘rinishi, boshqa jihatlari aniqlana boshlanishi mumkin. Natijada konstruksiyadagi asosiy g‘oya katta o‘zgarishlarga olib kelishi ehtimol.

Bajarilayotgan chizma (texnik rasm) va fazoviy tafakkur etish o‘zaro dialektik munosabatda bo‘lgani uchun ular bir-birini qiziqarli g‘oyalar bilan to‘ldirib boradi. Natijada fazoviy tafakkur qilish chizmani ortda qoldirib, qog‘ozda o‘ylagan obrazni chizish bilan uni mustahkamlaydi. Bunday qilish orqali o‘ylagan obrazni aniqlashga va ba’zi bir elementlarning o‘zaro munosabatlari tekshirishga, keyinchalik konstruksiyalashni davom ettirishga, fazoviy tafakkur etishga ozuqa beradi.

Yetarli darajada tez, aniq va qog‘ozda xatosiz tasvirlashni eplay olmaydigan odam, ongidagi faraz qilayotgan obrazlarni ham tezda qog‘ozga tushirishda ko‘p qiyinchiliklarga duch keladi. Ayniqsa, hozirgi zamon kompyuterlaridan foydalanishda tezkor faraz qilish va unga ongdagi obrazlarni zdulik bilan kiritishni talab qiladi. Shu sababli har bir odam fazoviy tasavvur va tafakkur etish bilan bir qatorda ongida faraz qilayotgan narsani qog‘ozga tushirish mahoratini ham egallashi zarur.

Yuqoridagi salohiyatni belgilovchi parametrlardan biri talabaning grafik savodxonligi hisoblanadi. Loyihalash jarayonida ishtirot qiluvchi o‘quvchi va talabalar albatta chizmalarni tuzish va uni o‘qish malakasiga ega bo‘lishi shart. Berilgan shart asosida ijodiy fikrlash, tasavvur qilish, loyihalash va uni qog‘ozga tushirish uchun chizmachilik fanining qonun-qoidalarini bilish shart bo‘ladi. Shuningdek, ilmiy-texnika taraqqiyotining hozirgi zamon talabalariga mos keladigan shaxsni kamol toptirish, ularda «grafik savodxonlik»ni va ijodkorlikni tarbiyalash hamda yaxshilash bugungi va ertangi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qoldi.

Loyihalash bilan bog'liq bo'lgan har qanday moslama ijodiy fikrlash ya'ni yangilik yaratish bilan bog'liq bo'ladi.<sup>3</sup>

*Ijod* deyilganda ma'lum vaqtida va vaziyatda zarur va foydali yangilik yaratish tushuniladi. Umuman olganda ma'lum narsadan tashqari yaratilgan narsani *ijod mahsuloti* deyish mumkin. O'z navbatida *yangilik* deyilganda, ilgari shunday shaklda bo'limgan, ayni vaqtida tarkibida ilgari ma'lum materiallar bor bo'lsada yakunlangan ko'rinishida albatta ilgari ma'lum bo'limgan element kiritilgan texnik fikrlash mahsuloti tushuniladi.

Yangilik *obyektiv* va *subyektiv* bo'lishi mumkin. *Obyektiv yangilik* shu paytgacha o'ziga o'xshashi mavjud bo'limgan yangilikdir. *Subyektiv yangilik* – bu aslida mavjud lekin ayni vaqtida u yaratuvchi uchungina yangilik hisoblangan yangilikdir.

*Loyihalash masalalari* deyilganda, u yoki bu detalning, moslamaning, mashina hamda inshootlarning shaklan va mazmunan o'zgarishi nazarda tutiladi. Bu o'zgarishda detaillar, mexanizmlar, moslama va mashinalar tarkibiga yangi konstruktiv elementlar kiritish qismlarini rekonstruksiyalash, oldingisidan unumli, arzon va qulaylikka egaligini ta'minlaydigan turini barpo qilish talab qilinadi.

Moslamani qayta loyihalash uchun nazarda tutilgan asosiy masala nimada ekanligini, uning natijasi oldingisidan yaxshiroq, unumli ekanligi bilan takomillashtiriladi.

Yangi g'oya shu moslamaning ish funksiyasiga asoslanadi. Ishlash prinsipi yutuq va kamchiliklarga muvofiq moslamaning yangi g'oya bilan takomillashgan varianti o'ylab topiladi. Bu o'z-o'zidan ma'lumki, natija bir xil emas, aksincha turli xil bo'lishi mumkin. Loyihalash amalda grafik savodxonlik, texnologik bilimlar, konstruksiyalash malakalariga tayanadi. Yangi loyiha dastlab fikran yaratilib, uning chizmasi konstruktoring g'oyasini ifodalovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Yangi buyumming obrazini fikran miyada yaratib, uni ong orqali grafik tasvirlash usuli bilan bera olishdir.

<sup>3</sup> P. Adilov, A. Ashirboyev, A. abdurahmonov, A. Valiyev, A. Qoratoyev, R. Yah'yayeva. Chizmachilik (ma'ruzalar matni). TDPU rizografi, 2000-90 (29-30 betlar).

Loyihalash jarayonidagi loyihachilik faoliyatining muvaffaqiyatli tomoni ham ana shundadir.

Insonning yaratuvchanlik faoliyatida grafik tasvir o‘zaro bog‘langan ikki vazifani bajaradi. Birinchidan, chizma fikrlashning o‘ziga xos quroli, ikkinchidan fikr (g‘oya)ni beruvchi vositadir. Shuning uchun ham loyihachilik faoliyatida asosan grafik jihatlarni ajratib o‘rganamiz.

Chizma yordamida g‘oyani bilib oladi – bu vaqtda u chizmani o‘qiydi yoki g‘oyani beradi. Demak, loyihalash deganda mehnat unumdorligini oshirish uchun texnik-texnologik sharoitlar asosida butunlay yangi narsalar yaratish yoki amaldagisidan uni konstruksiyalash bilan bog‘liq texnik hujjatlar to‘plamini ishlab chiqishni tushunish mumkin. Bu jarayonni amalga oshirishda mashina detallarining shakli og‘irligi va o‘lchamlarining o‘zgarishi tabiiy. Loyihalash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat.

*Birinchi bosqich* – tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, unda texnik ehtiyojlar aniqlanadi.

*Ikkinci fikrlash bosqichida* – shu sohadagi ilmiy axborotlar tahilil qilinib, masalani yechish bosqichlarida yechish vositalari va variantlari tanlanadi.

*Uchinchi izlanish bosqichida* tuzilgan g‘oyalalar solishtirib chiqiladi hamda ulardan eng maqbuli tanlab olinadi.

*To‘rtinchi amalga oshirish bosqichida* loyiha axborotlarning grafik vositasi bilan rasmiylashtiriladi hamda yechim tekshirib chiqiladi.

Yangi konstruksiyani joriy qilish yoki amaldagisi modernizatsiyalanganda turli texnik ishlab chiqarish texnologik, iqtisodiy va shunga o‘xhash talablar bajariladi. Bu talablar quyidagicha:

- 1) amaldagi konstruksiyani soddalashtirish;
- 2) materialarning mustahkamlik xususiyatlaridan to‘liq foydalanish;
- 3) buyumga ishlov berishda chiqindilarni kamaytirish maqsadida detalning shaklini to‘g‘ri tanlash hamda chiqindisiz texnologiyani ishlab chiqish;
- 4) pardozlash ishlarida qo‘l mehnatini kamaytirish;
- 5) materialni tejash;
- 6) detallarning xizmat muddatini oshirish.

Loyihalashga oid masalalar yechishning boshqalardan farq qiladigan asosiy xususiyati shundan iboratki, ularning yechimi ko‘p variantli bo‘lishiga qaramay, masalaning sharti bo‘yicha muayyan texnik-texnologik, iqtisodiy talablarning bajarilishi bilan xarakterlanadi.

## I BOB. CHIZMACHILIK FANIDA LOYIHALASH PRINSIPLARI.


### **1.1-§. Fazoviy tafakkur qilish orqali fazoviy tasavvurni o'stirish**

Biror geometrik jism, masalan, kub to‘g‘risida gap borganda u qanday ko‘rinishga ega, qanday elementlardan tuzilgan, chizmada u qanday tasvirlanadi kabi savollarga duch kelinadi. Shunday savollarga javob topish uchun fikrlash boshlanadi. Fikrlash jarayonida tafakkur yordamga keladi. Shunda kub yoqlari bir xil kvadratlardan tashkil topganligi va bu kvadratlar oltita ekanligi ayon bo‘ladi hamda ushbu kubning yaqqol tasvirini chizishga urinib ko‘riladi. So‘ngra proyeksiyalarda tasvirlashga o‘tiladi.

Shunday qilib kub to‘g‘risidagi ma‘lumotga ega bo‘lish uchun oldin fazoviy tafakkurni ishga solib, fazoviy tasavvur qilishga ega bo‘linadi. Endi kub bilan bog‘liq bir nechta misollar yechib ko‘riladi.

1. *H* va *V* da o‘zaro teng kvadratlar proyeksiyalari chizigan. *W* dagi proyeksiyasi orqali u qanday narsa ekanligini aniqlang (1.1-rasm).

- *H* va *V* ga  $45^\circ$  burchak ostida yotgan to‘g‘ri chiziq kesmasi tasvirlangan (1.1-rasm, *a*);
- katetlari o‘zaro teng uchburchak tasvirlangan (1.1-rasm, *b*);
- *H* va *V* dagilarga teng kvadrat tasvirlangan (1.1-rasm, *c*).




**1.1-rasm**

Mulohaza yuritilsa, *a*- shakl olinsa, to‘g‘ri to‘rtburchakli tekislik; *b*- shakl olinsa, yarimta kub va *c*- shakl olinsa, to‘liq kub tasvirlangan hisoblanadi.


2. *V* va *H* da proyeksiyalari bir xil kvadrat va o‘rtasida uni teng ikkiga bo‘lувчи chiziq chizilgan (1.2-rasm). Uning nimaligini aniqlang.

1.2-rasm, *a*, *b*, *c*, *d*, *e* va *f* lar orqali masala yechimi variantlarda ko‘rsatilgan.



1.2-rasm

3. Uchta teshik va kubning yaqqol tasviri berilgan (1.3-rasm, a).



1.3-rasm


Kubni shunday loyihalangki, shu uchta teshikdan tig'iz o'tadigan detal hosil bo'lsin.

Birinchi teshikning yuqorisida ariqcha o'yiq bo'lib, kubning yaqqol tasvirida unga mos ariqcha o'yiladi (1.3-rasm, b). Ikkinci teshik kvadratligicha tasvirlangan. Uchinchi teshikning pastki qismida katetlari o'zaro teng to'g'ri burchak qirgilgan. Xuddi shu burchakka teng kubning  $W$  ga parallel tomonida o'yiq qirqliladi (1.4-chisma, b).

4. Bitta sim bo'lagidan yasalgan modelning  $H$  va  $V$  dagi proyeksiylari berilgan (1.4-rasm). Uning uchinchi proyeksiyasi va yaqqol tasvirini bajaring.

Modelning berilgan ikkita proyeksiyasiga muvofiq uchinchi proyeksiyasini aniqlashdan avval, kubning simdan yasalgan yaqqol tasviri chizib olinadi. So'ngra kubning  $V$  ga perallel yog'iga  $V$  dagi tasvir tushiriladi. Simming proyeksiyalariga kubning qirralari deb qaralad. Model bir butun sim bo'lagidan yasalganligi sababli

kubning bitta qırrasida sim ikki marta takrorlanmasligi lozim. Yaqqol tasvir orqali modelning beshta varianti mumkinligi aniqlanmoqda (1.4-rasm, a, b, c, d, e). Shunday fazoviy tafakkur qilish mashqlarini ko'proq takrorlashdan so'ng o'quvchilarda fazoviy tasavvur qilish qobiliyati rivojlanishi aniq.



1.4-rasm


**Loyihalashga oid ijodiy masalalar.** Konstruktur mehnatini o'z ichiga olgan masalalarni o'rganish va ularni imkon qadar yechishga harakat qilish orqali loyihalashga ijodiy yondashish mumkin. Hayotda uchrab turadigan har qanday buyumga yangi konstruktiv element kiritilsa, unda qanday o'zgarish ro'y berishini ko'z oldingizga keltirib ko'ring. Konstruktiv elementlar (teshiklar, o'yiqlar va boshqalar) shaklini biroz o'zgartirish, burchaklarni yumaloqlash kabilalar kiritilib, yangi foydali sifatlar berish orqali buyumning og'irligini kamaytirish, pishiqligini oshirish, ishlov berishni soddalashtirish, foydalanishga qulay, ko'rinishidan chiroylik bo'lislighiga erishish mumkin. Bu o'ziga xos sermehnat ish bo'lib, idrokli va sabr-toqatl bo'lislini talab qiladi.

Loyihalashni o'rganish maqsadida turli ijodiy masalalarni yechish mashq qilinadi. Turli moslamalarni yasash yo'li bilan shug'ullanishga, ba'zi qo'pol ishlangan buyumlarni chiroyli, o'ziga jaib etadigan darajada qayta ishlash lozim bo'ladi. Buning uchun ularning shakliga o'zgartirish kiritiladi. Shundan keyin buyum go'zallashtirish bo'lsa, qayta badiiy loyihalangan bo'ladi.

**Narsaning geometriyasini qisman qayta loyihalash.** Amaliyotdag'i detalning konstruktiv tuzilishi yoqimli va ko'rkan qilib o'zgartirishga, vaznini ham kamaytirib,

uni foydalanish uchun qulay va samarasi yuqori qilib qayta loyihalashga *dizayn* deyiladi. Dizayn inglizchada “*Dezing*” – *chizma, rasm, loyiha* degani.


Hozirda har bir narsani o‘ziga jalb qiladigan, yengil, chiroqli va ko‘rkam qilib tayyollashga dizayn talablariga javob beradigan darajada bajarilgan deyish qabul qilingan. Masalan, 1.5-rasm, a dagi detalning vazni (og‘irligi)ni kamaytirish maqsadida uning shakli geometriyasi qisman dizayn talabida o‘zgartirilgan. Natijada u 1.9-rasm, b, c va d lardagi ko‘rinishga o‘zgardi.



#### 1.5-rasm

Detalga kiritilgan o‘zgartirish chizma orqali amalga oshirilsa, *chizmani qayta ijodiy loyihalash* deyliadi. Detal shaklini fikran o‘zgartirish, uning qayta ijodiy loyihalangan holatini tasavvur qilish fikrlash qo‘zg‘aluvchanligini o‘stiradi. Chizmada ijodiy loyihalash elementlarini kiritish orqali turli muammolarni yechish mungkin bo‘ladi.


1.6-rasm, a da detal B ning A chiqig‘i bo‘lib, uning chizmasi 1.6-rasm, b da ko‘rsatilgan. A chiqig‘ini B ning hisobiga xuddi o‘shanday shakl va o‘lchamdagagi chuqurcha (ariqcha, paz)ga almashtirish lozim bo‘lsa, 1.6-rasm, c dagi ko‘rinishga o‘tadi. Bu yerda A chiqiq ariqchaga almashtirildi.



1.6-rasm


1.7-rasm, a da berilgan detalning silindrik chiqig‘i va asosining chap tomonidagi o‘yiq xuddi o‘shanday shakl va o‘lchamdagagi silindrik teshik va prizmatik chiqiqqa

almashadirilgan ko'rinishi 1.7-rasm, *b* da ko'rsatilgan. Endi, ikkala *a* va *b* tasvirlar bir-biriga (*b* ko'rinishni qopqoq sifatida) juftlashtirilganda (kiritilganda) detal qanday ko'rinishga ega bo'lishini chizib ko'rsating.



1.7-rasm

1.8-rasm, *a* va *b* dagi detalning geometrik shaklini belgilangan chiziq (chiziqqa nuqtalar qo'yilgan) bo'yicha o'zgartirish talab qilinsa, u 1.8-rasm, *c* dagidek ko'rinishga o'tadi.



1.8-rasm


Yangi buyumlar ixtiro qilinayotganda yoki amaldagilarni takomillashtirish jarayonida javob ikki va undan ortiq, ya'ni ko'p turli bo'lsa, unda masala *ijodiy masala* hisoblanadi. Konstruktur loyihalash jarayonida shunday ko'p turli yechimga duch kelib qolsa, o'zining eng oliv darajasi – ijodiy faoliyatini ishga solib, texnik, texnologik hamda iqtisodiy masalalar shartlarini hisobga olgan holda eng optimal variantni tanlaydi. Shunda turli grafik tasvirlar orqali o'z maqsadiga erishadi.

Detalga foydali o'zgartirish kiritish lozim bo'lsa, u vaqtida, detalga kiritilishi kerak bo'lган o'zgartirish sharti yozma ravishda berliadi va u orqali detalning yangi chizmasi chiziladi.


**1.2-§. Oddiy geometrik jismlni ko‘p elemehtli model (detal) ko‘rinishida shakllantirish. Rekonstruksiya.**

Quyida berilgan bir elementli geometrik jismlarning kombinatsiyalaridan ikki va undan ortiq elementli detallar hosil qilinadi (2.1-rasm).


Masalan, katta va kichikroq silindrлardan, silindr va konusdan, kub va silindrлardan va shu kabi kombinatsiyalashlardan ikki elementli modellar yasash mumkin (2.2-rasm). O‘rtasi teshik silindr, konus, prizma kabi jismlar ham ikki elementlikka kiradi (2.3-rasm).



**2.1-rasm**




**2.2-rasm**




**2.3-rasm**

Silindr, konuslarning asoslarida konussimon faskalar, kub, prizma asoslarida ham faskalar (sirt turiga qarab piramidasimon qilib) bajarilgan bo‘lsa, unday detallar ham ikki elementli hisoblanadi (2.4-rasm). Geometrik sirtlarni biror qismini qirqib (kesib) olish yo‘li bilan ham ikki elementli model yasash mumkin (2.5-rasm).

Ikkitadan ortiq elementli modellar geometrik jismlarning qancha ishtiroy etishiga yoki nechta teshik, o‘yiq yoki qirqib olinishiga qarab aniqlanadi.




**2.4-rasm**




**2.5-rasm**

Kombinatsiyalash yo‘li bilan ko‘p elementli model hosil qilish: katta va kichik bir xil geometrik jismlardan tuzilgan modellar, masalan, silindr ustiga kichikroq silindr (2.6-rasm, a), ikkita bir xil kattalikdagi konus (2.6-rasm, b), kub o‘rtasiga kichikroq kub (2.6-rasm, c), to‘rtburchakli prizma ustiga qo‘yilgan prizma (2.6-rasm, d). Yoki prizma ustida silindr (2.7-rasm, a), silindr ustida prizma (2.7-rasm, b), konus ustida silindr (2.7-rasm, c), prizma o‘rtasida silindr (2.7-rasm, d) kabi ko‘rinishlarda ikki elementli model yasash mumkin.



**2.6-rasm**




2.7-rasm


Prizma ustiga kesik konus va uning ustida silindr (2.8- chizma, a), silindr ustida prizma va uning ustida yarim sfera (2.8- chizma, b), prizma ustida faskali silindr (2.8 - chizma, c), silindr ustida kesik konus va uning ustiga yarimta sfera (2.8-rasm, d) kabi kombinatsiyalarda uch elementli modellar yasash mumkin:

- qirqish, teshish va o'yish ysulida;
- kubning bir qismi yoy bilan kesilgan (2.9-rasm, a), silindr va konusning o'qlariga perpendikular (gorizontal) va o'qi orqali kesib o'tuvchi (vertikal-profil) tekisliklarda kesilgan (2.9-rasm, b va c);
- prizmaning ustki qismida ariqcha ko'rinishida qirqib olingan (2.9-rasm, d). Bu yerda bir elementli geometrik sirt (jism) ning bir qismini qirqib (kesib) olish orqali ikki elementlilikka aylantirishga erishiladi.


Lekin qirqilishdan so'ng hosil bo'lgan joy geometrik sirt deb qaralishi lozim. Kubning bir qismi yoy kesilgan o'mida havol chorak silindrik, qolganlarida havol prizmatik sirtlar o'rinn olgan (2.10-rasm, a, b, c va d). Chunki bir elementli geometrik sirtdan ikki elementli sirt hosil bo'ladi, biri jism, ikkinchisi havol sirt. Ko'p elementli model yasashda qirqish, o'yish iboralar qo'llanilsa, o'quvchilarning bu jarayonlarni tushunishlari osonroq kechadi, degan fikrdamiz. Aslida ham har qanday geometrik obrazni biror jismidan dastgohda qirqish, o'yish yo'li bilan yangi detal hosil qilinadi.



2.8-rasm




2.9-rasm




2.10-rasm

Masalan, kub o'rtaidan silindrik teshik ochish (2.11-rasm, *a*), silindr o'rtaidan prizmatik teshik ochish (2.11-rasm, *b*), prizma o'qi orqali konussimon teshik ochish (2.11-rasm, *c*), konus o'qi orqali silindrik teshik ochish (2.11-rasm, *d*) kabi ko'rinishlarda yoki kub o'rtaidan silindrik chuqurcha o'yish (2.12-rasm, *a*), silindr o'qi orqali prizmatik chuqurcha o'yish (2.12-rasm, *b*), prizma o'rtaidan konussimon chuqurcha o'yish (2.12-rasm, *c*), konus o'qi orqali silindrik chuqurcha o'yish (2.12-rasm, *d*) kabi ko'rinishlarda ham ikki elementli modellar yasash mumkin.



2.11-rasm



2.12-rasm


Quyida faqat qirqish yo'li orqali ko'p elementli model yasash yo'llari bilan tanishiladi.

Berilgan kubning (2.13-rasm, *a*) chorak qismi qirqib olinsa (2.13-rasm, *b*) ikki elementli, undan ariqcha o'yib olinsa, uch elementli (2.13-rasm, *c*), ustki devorida yarim


aylanali ariqcha o'yib olinsa (2.13-rasm, *d*) to'rtta elementli model yasalgan bo'лади.

Ushbu kubni yana boshqacharoq qirqish yo'li bilan ham ko'п elementli model yasash mumkin (2.14-rasm, *a*, *b*, *c*, *d* va *e*). Bu yerda model beshta elementdan hosil bo'лган.

Shu tartibda xohlagan geometrik jismdan ko'п elementli model yasash mumkin.




2.13-rasm




2.14-rasm

**Rekonstruksiya.** Detalni ko'п elementlikdan bitta elementlikka keltirish (qaytarish) **rekonstruksiya** deyladi. Masalan, podshipnik deb nomlanuvchi detalni tahlil qiling va qirqilgan, teshilgan joylarini yopilib, bir elementli detal holiga keltiring (2.15-rasm). Buning uchun, eng avval, detalni biror geometrik sirtga o'xshatish lozim va uni o'sha sirt konturi bilan o'rab olish kerak (2.15-rasm, *a*). O'rab olingan sirt prizmatik jism bo'lib, silindriq yarim aylana va teshiklar olib tashlanadi (2.15-rasm, *b*), o'rtaqidagi ariqcha ham olib qo'yilsa (2.15-rasm, *c*) detal bitta elementli prizma ekanligi ma'lum bo'лади. Yoki detal avval bir nechta geometrik sirtlardan tuzilgan deb qaralishi ham mumkin. U vaqtida detalning asosi va ikki yon devori parallelepiped, yon devorlari

yarim silindrik sirtlar bilan yakunlangan hamda parallelepiped bilan yarim silindr kesishgan joyning o'rtasida silindrik teshikchalar o'yilgan deb qaratadi (2.16-rasm, *a*, *b*, *c* va *d*). Shu tartibda murakkabroq detallarni ham aslida qanday ekanliklarini aniqlash mumkin.




2.15-rasm




2.16-rasm

**Texnik detallarni tahlil qilish.** Silindr va konuslardan hosil bo'lgan to'g'ri valning bitta ko'rinishi berilgan (2.17-rasm, a). Bu val beshta silindr va ikkita konusdan shakllangan. Ikkinci val (2.17-rasm, b) ham faqat silindr va konuslarning turli ko'rinishlarida mujassamlashgan. Bu valda silindr va konuslar segment shponka va konussimon shtift uchun ochilgan konussimon teshik ko'rinishida ham tasvirlangan. Shunday qilib, bu val beshta silindr va uchta konus hamda tor (halqa) sirtlaridan tashkil topgan.

Suyuqlik yo'lini (suv) ochuvchi va berkituvchi ventildagi shpindel unga biriktirilgan klapan vositasida suvni ochadi va berkitadi (2.18-rasm). Shpindel tarkibida quyidagi geometrik jismlar mavjud: konussimon faska (1), silindrler (2, 3, 4, 6), rezbali silindr (5) va muntazam to'rt burchakli prizma (7). Bu yerda shpindel buralganda ventil qopqog'idagi rezbali teshikda shpindeldagi rezbali silindr orqali harakat qiladi. Shpindel (nemischa *Spindel*, aynan-urchuq) – ko'pgina mashinalarning aylanuvchi vali.




2.17-rasm



2.18-rasm


**Klapan** (nemischa *Klappe* – qopqoq) – to'siq-mashinalar, truboprovodlarda gaz, bug', suyuqlikning yo'lini ochish yoki yopish uchun xizmat qiladigan texnik detal yoki qurilma (2.19-rasm).




2.19-rasm

Klapan: rezbali silindr (1) shakli olti qirrali prizma (rezbali teshikli gayka – 5), shayba (6), rezina yoki charm qistirma (silindrik teshikli silindr – 7), 8 va 9 – silindrlar hamda 2, 3, 4 – havol silindrlardan iborat. Bu yerda klapan qistirma va gayka bilan birligida buyum sifatida tasvirlangan. Sababi suv oqib chiqadigan teshikni zinchilib qistirma orqali to'siladi. Gayka o'z navbatida shayba orqali qistirmani bosib turadi.

Yuqori bosimli joylarda konussimon klapanlar qo'llaniladi (3.20-rasm). Undagi sirtlar: 1, 4, 6 – konuslar, 2, 3, 5 – silindrlar. Klapan katta konussimon qismi bilan yuqori bosim ostida oqib kelayotgan suyuqlikni zinch to'sish hususiyatiga ega. Xonadonlardagi vodoprovodlarda kran-ventil, aralshtirgichlarda sintetik materiallardan yasalgan klapanlar ham qo'llanilmogda (2.21-rasm).




2.20-rasm



2.21-rasm

Gaz kranlarida shpindel va klapanlar o'rnidagi tifin (probka)lardan foydalilaniladi (2.22-rasm). Gaz kranining tifin qismi konussimon bo'lib u: 1 – metrik rezbali silindr, 2 – silindr, 3 – konus, 5 – muntazam to'rt burchakli prizma va 6 – havol silindrlardan ibotar. Bu yerda rezbali silindr gayka yordamida kran korpusidagi konussimon teshikka tirqish (zazor)siz joylashishini ta'minlaydi. Prizmaga kiydiriladigan sop – kalit yordamida tifin  $90^\circ$  burchakka burilganda silindrik teshik orqali gaz yoli ochiladi yoki berkitiladi.



2.22-rasm

Juda katta bosimli joylarda tijinli kranlardan foydalaniib bo'lmaydi. Sababi, kuchli bosim yo'li birdan to'silib qolishi va kuchli bosimga bardosh bera olmasligi oqibatida tarmoqdag'i tizimda avariya (buzilish) holati ro'y beradi. Shu boisdan bosimni asta-sekinlik bilan to'sib borish maqsadida ventil (nemicha *Ventil* -klapan)lardan foydalilanildi, ya'ni quvurlarda harakatlanayotgan suyuqlik, bug' miqdorini asta-sekin rostlaydigan berkitish-ochish moslamasi – ventil qo'llaniladi.

### I. 3-§. Texnik detallarni shakllantirish.

Detallar quyma, bolg'alash, shtamplash, dastgohda ishvlov berish yo'li bilan tayyorlanadi. Detal modelining shakli qancha sodda bo'lsa, u shuncha oson tayyorlanadi va arzonga tushadi.

Mashinasozlik amaliyotida tekis sirtli va aylanish sirtli detallaridan ko'proq foydalilanildi. Chunki mayjud stanok (dastgoh)larda ularni tez, oson va arzon tayyorlashga erishish mumkin. Frezerlash, randalash, zarblast, revolverlik va tokarlik dastgohlarida tekis va aylanish sirtlariga osongina ishvlov beriladi.

Murakkab tuzilishga ega bo'lgan detallar quyish yo'li bilan hosil qilinadi. Detal individual va kam seriyali ishlab chiqarishda po'lat va rangli materialarning bo'lagidan bolg'alash, cho'kiclash yo'li bilan hosil qilinadi. Ommaviy seriyada ishlab chiqariladigan buyum detallari asosan issiq yoki sovuq shtampovkalash yo'li bilan bajariladi.

Shtampovka yo'li bilan olingan detallar aniqligi va ishvlov berishda kam chiqindi chiqishligi bilan ajralib turadi. Ko'plab bir xil seriyada ishlab chiqariladigan rezbalı


biriktirish detallari ham sovuq avtomat tushirish presslarida tayyorlanadi. Bunday usulda tayyorlangan mahsulot sifatining yuqoriligi bilan ajralib, arzonga tushadi.

Navli (sortli) prokatlangan listli materiallardan aylanish, oval, kvadrat, to‘g‘ri to‘rburchakli, oltiburchakli, turli shakkardagi tekis detallar sovuq shtampovkalash yo‘li bilan olinadi. Ko‘pchilik hollarda zagotovkalar har xil usullarda tayyorlanib, ulardan iqtisod talab qilinadigan turi tanlab olinadi.

Detalning o‘lchami, geometrik shakli, ishlatalidigan material, qancha dona ishlab chiqarilishi, bajarilishining aniqlik darajasi va ishlab chiqarish turiga qarab uning zagotovkasi (keyinchalik, ishlov berib tayyor buyumlar olinadigan chala mahsulot) tanlanadi.

Quyma va shtampovkalash yo‘li bilan hosil qilinadigan detal zagotovkasi oldindan tozalash, to‘g‘rilash, shilish, tekislash, terets (silindrsimon, prizma detallarning tashqi yoki ichki sirtlariga ishlov berish jarayoni)lash, markazlash kabi ishlov beriladi.

Mashinaning quyma detali yoki zagotovkasini eritilgan metallni formaga quyish yo‘li bilan olinadi. Buning uchun oldin detalning ishchi chizmasi bo‘yicha (3.1-rasm, a) uning quyma chizmasi (3.1-rasm, b) bajariladi. Unda mexanik ishlov berish hamda metallning cho‘kishi va qisqarishini hisobga olgan holda, pripusk (o‘lchami andek kattalikda) chiziladi.




3.1-rasm

Detalning quyma chizmasiga binoan uning modeli bajariladi. Formada teshikka mo‘ljallangan sterjenning mustahkamlanishi uchun pripusk A qo‘sib tayyorlanadi.


Modellar asosan formovkalash oson bo'lishi uchun ko'pincha ikkita bo'lak qilib tayyorlanadi (3.2-rasm, a). Sterjen sexida sterjen qutisi (yashik)da silindrik teshik uchun birlashtiruvchi material yordamida qumdan sterjen tayyorlanadi (3.2-rasm, b). Formovkalash sexida model bo'yicha ikkita ramkada opoka (bir martalik qumli qoliplarni tayyorlashda va metall quyishda qolip aralashtirmasini tutib turadi, opoka – kulrang yoki qora rangli qattiq mikro-g'ovakli yengil mineral jins) deb nomlanuvchi forma tayyorlanadi (3.2-rasm, c va d).

Metall eritish sexida suyuq metall formaga quyiladi. Metall qotgandan so'ng forma buziladi va hosil bo'lgan ortiqcha quyilgan metall olib tashlanadi (3.2-rasm, e).




Qirqish, tozalash kabi bo'limda quyma detal baracha ortiqcha narsalardan mexanik ishlov berish sexiga yuboriladi. So'ngra tayyor mahsulotlar omboriga topshiriladi.

Sovuq shtampovka yo'li bilan listli materialdan olinadigan detallarni loyihalashda metallni tejash yo'li bilan mahsulotning tannarxi kamaytiriladi. 3.3-rasm, *a* dagi variantdagiga qaraganda 3.3-rasm, *b* dagi variant ustun bo'lib, metall 20 foizgacha tejaladi. Yirikroq tishli g'ildiraklarni detalning boshdan oyog'igacha qimmatbaho metallni sarflamasdan ularni yig'ma qilib ishlatilish joyiga qarab 3.4-rasmda ko'rsatilgan variantlardan birini tanlab olish joiz.



3.3-rasm




3.4-rasm

### I. 4-§. Detallarga mexanik ishlov berish usullari.

Turli ko'rinishdagi ishlov berish usullarini amalga oshirish uchun juda ko'plab metallga ishlov berish dastgohlari: tokarlik, frezerlash, randalash, zarb berish, silliqlash, qirquvchi, teshuvchi, karuselli va boshqalar mayjud. Bunday dastgohlarda qo'llaniladigan asboblar: kesib otuvchi keskich, randalovchi keskich, parma, zenker (ko'p tishli kesuvchi asbob), zenkerlash, toretsli freza (ko'p tig'li kesuvchi asbob), silindrik freza, chervyakli freza, belgilovchi, planka (silindrik teshikka rezba o'yuvchi), pichoqlari almashtirilib turadigan uch yo'qlama diskli freza, protajka, razvertka, shlifovkalash (silliqlash) kabi asboblar mavjud. Bularidan tashqari kombinatsiyalashgan parma-razvertka, parmazenkovkalash kabilar bisyor.

4.1-rasmda detallarga mexanik ishlov berishning asosiy usullari ko'rsatilgan.



4.1-rasm

Yuqorida qayd etilgan kesuvchi asboblarni detailarning shakliga, bajariladigan ishning ko'rinishiga qarab tanlanadi. Detallarga ishlov berish jarayonida yuzalar butunlay tekis bo'lmaydi, ya'ni notejisliklar paydo bo'ladi. Notejisliklar majmuyi *yuzaning g'adir-budirligi* deyiladi. G'adir-budirligini baholash uchun O'z. Dst 2.789:98 tomonidan turli ko'rsatgichlar qabul qilingan:

$R_a$  – yuza profilining o'rta arifmetik chetga chiqishi;

$R_z$  – profilning o'nta nuqtasi bo'yicha g'adir-budirlikning balandligi;

$S_m$  – g'adir-budirlikning cho'qqilar bo'yicha o'rtacha qadami;


$t_p$  – profilning nisbiy tayanch uzunligi;

$P$  – real yuza profili kesimi darajasining sonli qiymati.

Yuzalarning g'adir-budirligini tasnifiy (klasslash me'yor (norma)langan baza


uzunligidagi yuzalarda  $R_a$  va  $R_z$  parametrlarning sonli qiymatlari maxsus jadvalda ko'rsatilganlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Konstruktor tomonidan detal yuzasiga ishlov berish turi ko'rsatilmagan bo'lsa, ✓ belgi qo'yiladi. Materialning biror qatlamini olib tashlashdan hosil bo'ladigan yuzani belgilash uchun ✓ belgi qo'yiladi. Materialning biror qatlamini olib tashlamsandan, o'z holicha qoladigan yoki yetkazib beriladigan holatda saqlanib qoladigan yuzaga uni belgilash uchun ✓ belgi qo'yiladi. Detal konstruksiyasini tashkil qiluvchi yuzalarning g'adir-budirligi bir xil bo'lsa, uning belgisiga qo'shimcha kichkina aylana kiritiladi va u ✓ belgi bilan ko'rsatiladi. Agar detal konturi egri sirt bo'lsa, bu qo'shimcha belgi kiritilmaydi (4.2-rasm, a va b).



4.2-rasm

Yuzalarning  $R_{z40}$  dan  $R_{z320}$  gacha bo'lgan g'adir-budirligi xomaki yo'nib yoki yirik tishli egov (№1 va №0) bilan egovlab hosil qilinadi. Yuzalarning  $R_{z10}$  dan  $R_{z40}$  gacha va  $R_{1,25}$  dan  $R_{2,5}$  gacha parametrarga mos keladigan g'adir-budirlik tozalab yonish mayda tishli egov (№2) yordamida egovlash yo'li bilan hosil qilinadi. Yuzalarning  $R_{1,24}$  dan  $R_{0,16}$  gacha bo'lgan g'adir-budirligiga jilvirlash va sayqallash yo'li bilan erishiladi, g'adir-budirlik parametrining bundan yuqori qiymatlarga erishish uchun xoning (charxlamoq va boshqa) usullardan foydalaniladi. Quyida barcha yuzalar g'adir-budirligi bir xil bo'lishi kerak bo'lgan holda saqlanishiga misol (4.3-rasm, a), yuzaning bir qismi bir xil g'adir-budirlikka ega bo'lishi kerak bo'lgan holdagi belgilanishidagi misol (4.3-rasm, b), yetkazib berilgan paytdagi hamda saqlanadigan yuzalarning (ko'rsatilganlardan tashqari) g'adir-budirlikni belgilashga misol (4.3-rasm, c) lar berilgan.



4.3-rasm

G‘adir-budirliklar yo‘nalishining shartli belgilari chizmalarda zarur hollarda qo‘yiladi. Talab qilingan sirtmi hosil qilish uchun yuzaga ishlov berish turi yagona bo‘lsa, u holda bu ishlov berish turi chizmaga yuzaning g‘adir-budirlik belgisida ko‘rsatiladi.

Yuzalarning g‘adir-budirlik belgilari detal tasvirlarining kontur, chiqarish chiziqlariga yoki chiqarish chiziqlarining tokchalariga qo‘yiladi. Detallarning barcha yuzalarining g‘adir-budirligi bir xil bo‘lsa, belgi chizmaning yuqori o‘ng burchagida joylashtiriladi va ko‘rinishlarda qo‘yilmaydi.

#### I. 5-§. Konstruktorlik (loyihalash) masalalari.

E. Begmatov va boshqalar hammullifligida yozilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” kitobida konstruktor, konstruksiya, loyiha va loyihalash so‘zлari quyidagicha mazmunga ega ekanligi keltirib o‘tilgan.

*“Konstruktor – mashina, mexanizm, inshoot va ularning ayrim qismlari konstruksiyasini, loyihasini tuzuvchi mutaxassis, injener deb tushuniladi.*

*Konstruksiya – lotincha construction so‘zdan olingan bo‘lib, u to ‘plash, yig ‘ish, tuzilish, qurilish degan ma’nolarni beradi.*

*Loyiha – arabcha so‘z bo‘lib, u ro‘yhat, nizom, qoida, reja, dastur kabi ma’nolarni beradi.*

*Loyihalash – mo‘ljallangan obyektlar (asbob va jihozlar, bin ova inshootlar, turli mashina va apparatlar, kiyim-bosh va mebellar)ning yangi namunalarini qurish va*

*yaratish uchun ularning loyihalarini tuzish va chizish”<sup>4</sup> – ma’nolarini beradi.*

Chizmachilikda konstruktorlik masalalari ham yuqoridagi mazmunga asoslanadi va o’ziga xos ko‘rinishlariga ega.Umuman olganda, konstruktorlik (loyihalash) masalalarini uch guruhga bo‘lish mumkin: konstruktiv, texnalogik va ekspluatatsiya qilish.

***Konstruktiv masalalar:***

- buyum detallarining qulay tuzilishini ta’minlovchi konstruksiyasining principial sxemasini ishlab chiqish;
- buyumni yig‘ish va ajratishning qulay bo‘lishligi, konstruksiyasining soddaligi;
- buyumni bo‘laklarga ajratish, montaj qilish (o‘rnatish) va rostlashning qulayligini ta’minlay olish;
- detallarga materialni oqilona to‘g‘ri tanlash, zagotovkani tayyorlashda eng kam material, ishlov berishda minimal vaqt sarflash;
- detallarga o‘lchamlar qo‘yishda baza tanlash tizimini to‘g‘ri tanlash;
- detallarga ishlov berishda sirtlarida hosil bo‘ladigan g‘adir-bidirlilik, o‘rtasidagi qo‘yilmalar oqilona asosinagan bo‘lishi;
- buyumdagи detallarning o‘zaro almahuvchanligini ta’minalash;
- buyumdagи detallar va ularning elementlari (rezba, teshik, diametr, radius) kabilarda materialning bir xilligini ta’minalash.

***Texnalogik masalalar:***

- buyumni ishlab chiqarishga tayyorgarlik vaqtini kamaytirishga, berilgan miqyosda uni o‘zlashtirishga erishish;
- buyumni yig‘ish va ishlov berishda zamonaviy tipovoy va ilg‘or texnalogik jarayonlardan foydalanish;
- imkon boricha yangi nazorat qilish moslamalaridan foydalanish;
- ishlab chiqariladigan buyumning yuqori sifatliligiga erishish.

---

<sup>4</sup> Begmatov E. va boshqalar. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 5 jildli, 2006-2008 yy.

### **Ekspluatatsiya (ishlatish) masalalari:**


- buyumning ishonchligi va chidamliligini ta'minlash;
- ekspluatatsiya sisatlarining barqarorligi;
- ishlatishda va ta'mirlashda oddiyligi;
- buyumning og'irliligini kamaytirishga erishish.

### **Buyumni loyihalash bosqichlari**

Yangi buyumlarni konstruksiyalashga quyidagilar kiradi:




- prognoz qilish (oldindan aytib berish);
- loyihalash (konstruktorlik hujjatlarini ishlab chiqish);
- konstruktorlik hujjatlar bo'yicha ishlab chiqarishga tayyorlash;
- ishlab chiqarishni o'zlashtirish.

**Quyma detallarni konstruksiyalash.** Cho'yan cho'zilishga nisbatan qisqarishga qarshilik ko'rsatadi. Shu boisdan cho'yan detallarning konstruksiyalarini ishlab chiqishda ularning qarshilik hususiyatlari hisobga olinishi zarur.





**5.1-rasm**


Masalan, 5.1-rasmdagi burchaklik detalning tokcha burchak ichiga qovurg'a loyihalanishi lozim. Quyish jarayonida qiyinchilikka uchramaslik uchun loyihalanadigan detalning metall ajratish chizig'iqa perpendikular qilib yoritish nurlari o'tkazilsa, model element (qismi)laridan tushadigan soyalar qismlari aniqlanadi (5.2-rasm, a, b va c). Soyalar tushadigan qismlarini yo'qotishga harakat qilinadi (5.3-rasm, a, b va c). Bunday loyihalashda quyish jarayoni osonlashadi va tannarxi kamayadi hamda detalning og'irligiga va mustahkamligiga putur yetkazilmaydi.



*b*




*b*




*c*

5.2-rasm

5.3-rasm



*a*



*b*

5.4-rasm


Murakkab shaklga ega detallarga ishvlov berish qiyinligini hisobga olgan holda ularni qismlarga ajratib loyihalanadi. Detal qismlariga ishvlov berilganda va valga o'tkaziladigan teshikka (5.4-rasm, *a*) hamda valga  $10^{\circ} - 15^{\circ}$  li faskalar qirqladi. So'ngra presslab birlashtiriladi (5.4-rasm, *b*).


## I. 6-§. Mashina detallarining va biriktirishning texnologiyalikligi. Inversiya.

Mashina detallarining shakli (forma)lari murakkab bo'lmasligi, ya'ni egri chiziqli, fasonli formalardan qochish, iloji boricha ishlov berishga moslanadigan aylanish va tekis sirtlardan loyihalanishi zarur. Murakkab formadagi detallarga ishlov berish uchun maxsus dastgoh va kesuvchi asboblardan foydalanishga majbur bo'linadi. Bu esa detal tannarxini ko'p marta oshirib yuboradi.


Detallarga ishlov berishda eng kam (minimal) hajmda vaqt sarflanishi lozim. Teshik ochishga mo'ljallangan sirtda bobishka (o'sma) (6.1-rasm, *a*) yoki toretslash (6.1-rasm, *b* va *c*) ko'ndalang parma o'qiga tekis joy bilan taminlanishi lozim. Ishlov berishda qirquvchi asboblarining kirishi va chiqish joyida protochka bo'lishi lozim. (6.2-rasm, *a* va *b*).

Agar qirquvchi asbobning erkin chiqishi ko'zda tutilmagan bo'lsa, u vaqtida o'tish joyi kesuvchi asbobning shakli va o'lchamiga mos kelishi shart (6.3-rasm).





*a*




*b*


*Nata'g'ri*

*To'g'ri*

**6.2-rasm**



**6.3-rasm**




**6.4-rasm**

Rezbalı detallarni o‘zaro nominal biriktirishda faskalar ochilishi lozim (6.4-rasm,


a). Quyma detallarda burchaklari yumaloqlangan bo‘lishi kerak (6.4-rasm, b, c).

Rezbalı detallarda faska, protochka kabi elementlari bo‘ladi. Ularni rezbaning  $d$  tashqi diametri va  $P$  qadamiga nisbatan taxminiy o‘lchamlarda chizilishi mumkin. Faska  $\approx P$ , protochka eni  $b \approx 2P$  qilib olinadi (6.5-rasm, a va b).

**Formovkalash paytida presslash, buklash orqali hosil qilinadigan birikmalar.** Biriktiruvchi detaillardan birini ikkinchisining holati suyuq yoki xamirlik paytida kirgizish yo‘li bilan hosil qilinadi va u birikma ***ajralmas formovkali birikma*** deyiladi. Formovkali birikmalarni metall, plastmassa, rezina, oynalar bilan hosil qilish mumkin. Suyuq yoki xamir holatidagi detalga tifqiladigan detalning qismiga turli kanavka bo‘rtiq, nakatka, liska kabilalar yasaladi (6.6-rasm).




6.5-rasm



6.6-rasm

Presslash yo'li bilan hosil qilinadigan birikmada ko'pincha plastmassa detallarga shtir kabi uchli detallar o'rnatiladi. Bu yerda o'rnatiladigan detal qismiga ariqchalar o'yilgan bo'ladi. Presslash val diametri va teshikning diametri har xilligini hisobiga amalga oshiriladi (6.7-rasm).

Yupqa devorli (tunuka) detallarning uchlari bir-biriga kiritiladigan qilib buklanadi va mustahkamlanadi. Shunda buklangan shartli ajralmas birikma hosil bo'ladi (6.8-rasm, a). Yoki bu ikkita detalni uchinchi detal bilan buklab birikma hosil qilinadi (6.8-rasm, b).



6.7-rasm




a




b

6.8-rasm




Formani ajratib  
olish chizig'i

Formani ajratib  
olish chizig'i




Formani  
chiqarib olish  
yo'nalishi




6.9-rasm


Quyiladigan detallarning modellarini opokada formalangandan keyin, ularni to‘g‘ri chiqarib olishda, ajratish chizig‘iga perpendikular devor va qovurg‘alarga kerakli qiyalik beriladi (6.9-rasm). Iloji boricha metallning bir xil sovushini ta‘minlash maqsadida quyma devorlar qalinligining bir xil bo‘lishiga erishish zarur. Sababi mahaliy kuchlanish jarayonida turli o‘zgarishlar ro‘y berishi mumkin (6.10-rasm). Detalning asosiy tayanch burchaklari va pastki qismlari boshqa qismlariga nisbatan qalinroq olinadi (6.11-rasm). Vallarda bir diametrдан ikkinchisiga o‘tishda har bir zvenoni mustahkamlash maqsadida yumaloqlash, ya’ni galtellar bajariladi (6.12-rasm).



6.10-rasm



6.11-rasm




6.12-rasm


Barmoq (val)ni teshikka presslab o‘tqazishda teshik chuqurligi barmoqqa nisbatan biroz chuqurroq bo‘lishi lozim. Shundagina ishonchli o‘tqazish ta‘minlanadi (6.13-rasm). Vtulkalarni teshikka presslab o‘tqazishda vtulka burtigining bemalol kirishi taminlanishi lozim. Detalning kiritilayotgan qismida faska ochilishi tavsiya etiladi (6.14-rasm). Zich o‘tkaziladigan detailarni o‘zaro birlashtirishda ularni ajratish qulay bo‘lishi uchun tirqish (zazo‘r) qoldiriladi (6.15-rasm).

Tasmali transporterda uzatilayotgan tuproq, ko‘mir, shag‘al va boshqalar manzilga yetganda, o‘z-o‘zidan itarilish va yuk-kuchi ta’sirida tushayotgandagi chizgan


trayekteriyasi parabolani hosil qiladi. Ushbu holatni hisobga olgan konstruktor himoya moslamasini to‘g‘ri loyihalashi mumkin (6.16-rasm).




6.13-rasm




6.14-rasm



6.15-rasm



6.16-rasm




6.17-rasm

**Inversiya.** Insonning mushkulini onson qilish maqsadida turli mehanizm, avtomat, qurilmalar yaratiladi. Masalan, uylarning yuqori qavatiga chiqish va undan tushishni yengillashtirish maqsadida liftlar, eskalatorlar, sportchilar uchun trenajyorlar, yugurish yo‘lkalari, qimirlamaydigan velosipedlar va boshqalar bunyod etilgan. Harakat, voqealar o‘rnilarining shakli va vazifalari almashuvli *inversiya* deyiladi. Inversiya- konstruktorlik amaliyotida ko‘plab

uchrab turadi va yangidan -yangi loyihalarni yaratilishiga sabab bo'ladi. Shulardan biri klapanli mexanizmda sferik sirtni tortuvchi (tyaga)dan zarb beruvchi (boyek)ga o'tqazish orqali, bu birikmaning doimo moylanib turishi sharoitini yaxshilaydi (6.17-rasm).

### I. 7-§. Qo'yilgan vazifani turlichcha yechish.

Misol sifatida richag (katta kuchni kichik kuch bilan muvozanatlaydigan oddiy mexanizm (detal) olinsin. U tayanch nuqtasiga ega bo'lgan qattiq jismdan iborat bo'lib, tayanch nuqtasidan o'tuvchi tekislikdagi kuchlar ta'sirida bo'ladi.



Agar kuchlar tayanch nuqtasining ikki tomonida joylashgan bo'lsa, muvozanatda bo'lishi uchun tayanch nuqtaga nisbatan olingan kuchlar, momentlar yig'indisi nolga teng bo'lishi kerak. Richagning **a** yelkasi uning **b** yelkasidan qancha katta bo'lsa, harakatlanuvchi kuch qarshilik kuchidan shuncha kichik bo'ladi. Bu richag qonuni. Bunda kuchdan qancha yutilsa, masofadan shuncha yutqaziladi.

Richagning tayanch nuqtasi **A**, yelkalaridagi **B** va **C** elementlari sxemasi berilgan (7.1 -rasm, **a**). Ushbu sxemaga binoan richagning konstruksiyasi 7.1-rasm, **b** dagi ko'rinishda loyihalanadi. Endi ashyoni tejash maqsadida **B** va **C** elementlarini

birlashtiruvchi tayanch elementi olib tashlansa, richag 7.1-rasm, *c* dagi ko‘rinishda loyihalanishi mumkin. Yoki *A* va *C* yelkasi qatnashmasin deyilsa, 7.1-rasm, *d* dagi yoki *A* va *B* yelkalarsiz bajarilsa, 7.1-rasm, *e* dagi, yoki *B* va *C* ga *A* dan tik o‘tkazib kuchlarni barobar taqsimlansa, 7.1-rasm, *f* dagi, yoki listli materialdan 7.1-rasm, *h* dagi ko‘rinishda bo‘ladi.

Shu tartibda buyum qulay variantga ega bo‘lguncha loyihalanadi. Bu variantlarning qaysi biri qulayligi texnikada qo‘llaniladigan joyga bog‘liq bo‘ladi.

### **1. 8-§. Mashinalarni loyihalashning asoslari.**

Har qanday yangi buyumning (u qanday bo‘lishidan qat’iy nazar) loyihalashdan avval u to‘g‘risida ma’lum bir fikrga kelish lozim va uning tasvirini qog‘ozga tushurish, uning bajaradigan ishini hisobga olish hamda buyumning tashqi shakliga aniqlik kiritish, so‘ngra ichki tuzilishini ishlab chiqish joiz bo‘ladi.

Barcha jarayonlarni albatta, qog‘ozga eskizlarini chizib chiqish tavsiya etiladi.

Har bir detalning qo‘sni detal bilan o‘zaro joylashishi, bir-biriga nisbatan vazifasi (harakatda bo‘lishi yoki bo‘imasligi) aniqlab olinadi.

Masalan, bug‘ ishlab chiqariladigan mashinadan tarmoqqa yo‘naltiriladigan bug‘lar me’yordan ortib ketsa, tarmoqdagi buyum ortiqcha bosimga bardosh bera olmay buzilishi mumkin. Tarmoqqa yuboriladigan bug‘ning me’yordan ortiqchasini tashqariga chiqarib yuboradigan moslamani loyihalash lozim bo‘lsin.


Buning uchun tarmoqqa yuborilayotgan bug‘ quvvatida teshik ochib unga bug‘ni qisman tashqariga chiqarib yuboradigan moslama ixtiro qilinsin deylik.

Bunday moslama orqali bosim kuchayganda ortiqcha bug‘ avtomatik ravishda tashqariga chiqib ketishi uchun rostlanadigan klapan loyihalanishi zarur. Silindrik teshikdan chiqaradigan bug‘ni to‘sib turadigan klapan qanday bo‘lishi lozim va u nima orqali rostlanadi? Klapan sfera yoki konussimon ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Konussimon klapanga qaraganda sferasimon klapan orqali bug‘ning oqib o‘tishida deyarli to‘sqinlikka uchramaydi.

Klapan sharik (sfera)dan yasalsa, u nima bilan rostlanadi? Bunday vaziyatda yagona yechim prujina bo'lishi mumkin. Prujinani rostlaydigan narsa – vint yoki rezbali detal tanlanadi. Klapan, prujina, rostlagich detalni o'zida mujassamlaydigan ko'rpus loyihalanishi darkor. Undan tashqariga chiqib ketadigan bug' uchun teshiklar ko'zda tutilishi lozim. Ihtiyoq qilinayotgan moslama (buyum), aytaylik klapan deb nomlansa, uni biriktirish uchun quvurda rezbali teshikli shtutser katta quvurda payvandlanishi lozim. Shtutserga klapanni biriktirishdan oldin unga kran (ventil) ulangan bo'lishi kerak.

Moslama klapanni o'rnatish va ta'mirlash paytida qulay bo'lishi uchun klapan-sharik, prujina-rostlagichni korpusga qopqoq sifatida loyihalash va uni kerakli ish rejimiga rezbsasi orqali burab rostlash uchun unga gayka kaliti uchun olti qirrali prizma ko'zda tutilishi lozim.


Korpusni silindrik qilib olgan ma'qul bo'ladi. Uning bir tomoni tarmoqqa rezba yordamida ulansa, ikkinchi tomonida prujinani rostlaydigan detal (bu yerda ko'proq qopqoq) o'rnatilishi lozim. Korpus ichiga klapan, prujina joylashadigan bo'shliq (kamera) o'yilgan bo'lishi kerak hamda o'rtiqcha bug'ni tashqariga chiqishini ta'minlaydigan teshiklar ochilishi darkor.



8.1-rasm

Mo'ljaldagi sharik va prujinani sotib olish mumkin. Endi moslamaning umumiyo ko'rinishini texnik rasmida chizib ko'riladi (8.1-rasm). Korpus va qopqoqning eskizlari chiziladi. Shunda detallarda qanday kamchiliklar mavjudligi ko'zga tashlanadi. So'ngra moslamaning yig'ilgan holdagi yig'ish chizmasi bajariladi. Materialni tejash va uning ko'rinishini yaxshilash maqsadida moslamaning bir nechta variantlari izlab ko'riladi. Ulardan qaysi biri ma'qul bo'lsa, osha varianti tanlab

olinadi. Masalan, 8.2-rasmdagi varianti qulay hisoblanadi. Endi bu moslama-klapanni ishlab chiqarishga joriy qilish mumkinligini aniqlash uchun konstruktorlik, texnologik va ekspluataсиya qilish masalalari o‘rganiladi, ya’ni sinovdan o’tkaziladi.



**8.2-rasm**

#### I. 9-§. Berilgan chizma-sxema bo‘yicha konstruksiyalashda texnik talablarni loyihalash.


Detallarni tadbiq qilinish joyiga qarab loyihalashda, ularning moslama yoki mexanizmlarda me’yorida ishlashi ta’minlanishi hisobga olinadi.

Masalan, 9.1-rasmda moslamaning yig‘ish chizmasi berilgan bo‘lib, undagi val *A* aylanma harakat qilganda detal *B* yuqorilama va qaytma harakat qilsin.

*Yechish.* Buning uchun val *A* ning uchi kulachok yoki ekssentrik shaklda loyihalanishi lozim. Shunday loyihalangan yechim 9.1-rasm, *b* da yig‘ish chizmasida ko‘satilgan. Yana boshqa misollarga murojaat etamiz.

*Misol.* 9.2-rasm, *a* da valikning tasviri berilgan. U butun silindrik sterjenden dastgohda yo‘nib tayyorlangan. Yo‘nilgan joylari shtrixlab qo‘yilgan. Valikni kam material sarflab tayyorlash yo‘lini hisobga olingan holda loyihalang.

*Yechish.* Materialni tejash va uni tayyorlash uchun kam vaqt sarflash maqsadida valikning asosiy qismini  $\varnothing 20$  mm li diametrda sterjenden tayyorlash lozim bo‘ladi (9.2-rasm, b). Valikning katta diametrli qismini alohida tayyorlanib, ular payvandlanadi yoki rezba yordamida biriktililadi (9.2-rasm, c).



9.1-rasm


9.2-rasm

*Misol.* 9.3-rasm, a da rolik val bilan qo‘shib tasvirlangan.

Aylanma harakat jarayonida tutash detallarda yejilish (yemirilish) hodisasi ro‘y beradi. Uning oldini olish maqsadida tutash detallarning o‘zaro ishqalanishini kamaytirish yo‘li izlab topilsin.


Buni ikki xil usulda loyihalashni taklif qilish mumkin.

1. Rolikning valga nisbatan tayanch sirtini kamaytirish lozim (9.3-rasm, b). O‘yilgan silindrik bo‘shliqni moyli manjeta bilan to‘ldirish mumkin.
2. Rolik teshigiga antifriksiyali materialdan yesalgan almashuvchan vtulka qo‘yiladi (9.3-rasm, c).



9.3-rasm

**Misol.** 9.4-rasm, *a* da saralash (taqsimlash) moslamasi sxemasi berilgan. Shunday detalni loyihalangki, sharchalar goh o'ng, goh chap tuynukka tushishini va tashqariga chiqib ketshini ta'minlang.




9.4-rasm

**Yechish.** Saralash moslamasi kamerasiga *T* shaklidagi to'sqich o'rnatilishi lozim. Uning geometrik shakli tarnovlarning ko'ndalang qismiga bog'liq bo'ladi. Ko'ndalang kesimi kvadrat shaklida bo'lsa, moslama 9.4-rasm, *d* dagidek, aylana bo'lsa 9.4-rasm, *e* dagidek tayyorlanadi.

Sharchalarning goh chapdagи tuynukka o'tishi 9.4-rasm, *b* da, goh o'ng tomondagi tuynikka tushishi 9.4-rasm, *c* da berilgan.

**Misol.** 9.5-rasm, *a* da ikki tavaqali eshikning sxemasi berilgan. Shunday moslamani loyihalang, bir vaqtning o'zida eshikning bitta tavaqasi ma'lum burchakka ochilganda ikkinchisi ham o'sha burchakka burilsin.

*Yechish.* Shunday moslama qo'llanilganligi 9.5-rasm, *b* da ko'rsatilgan.



## I. 10-§. Salnikli, klapanli va probkali qurilmalarning chizmasini hamda chambarakni shpindelga biriktirish usullarini chizish.<sup>5</sup>

**Biriktirish qismlari.** Turli buyumlarni shartga binoan qayta loyihalash, yoki original moslamalarni konstruksiyalashda, ularning yig'ish chizmasini bajarishda ko'pincha salnikli, klapanli va probkali qurilmalarning chizmasini va chambarakni shpindelga biriktirish usullarini chizishga to'g'ri keladi. Bunda quyidagi biriktirish qismlaridan foydalilaniladi:

a) *armatura* - quvurlarda harakat qiluvchi har xil moddalarning miqdorini rostlaydigan, shuningdek, ularning yo'nalishini o'zgartiradigan turli asbob va moslamadir.

b) *zatvor* - armaturalardagi o'tish yo'lini to'liq yoki qisman yopishda (ochishda) ishlataladigan detal. Korpus ichida, zatvorlarning yo'nalishiga qarab armaturalar quyidagi tiplarga bo'linadi:

1. *Jo'mrak* — o'tish yo'li tiqin yordamida yopiladigan (ochiladigan) armaturadir.

2. *Tiqin* — jo'mrakning zatvori bo'lib, u o'z o'qi atrofida aylanma harakat qiladi. Tiqinlar konussimon (konuslik <1:20) shaklda bo'ladi. Chizmada kranlarning o'tish yo'li ochiq holda tasvirlanadi.

3. *Ventil* — o'tish yo'li zolotnik (klapan) vositasida yopiladigan armaturadir. Zolotnik yoki klapan — ventilning zatvori bo'lib, u korpus o'qi bo'ylab harakat qiladi. Chizmada ventillarning o'tish yo'li yopiq holda tasvirlanadi.


4. *Zadvijka* — o'tish yo'li pona va disk vositasida yopiladigan armaturadir. *Pona* zadvijkaning zatvori bo'lib, u o'tish yo'lining o'qiga nisbatan qaytma-ilgarilama harakat qiladigan konussimon (konuslik <1:20) detal. Chizmada zadvijkalarning o'tish yo'li yopiq holda tasvirlanadi.

<sup>5</sup> To'xtayev A., Abramyan Y., Mashinasozlik chizmachiligidan ma'lumotnomasi, T., "ILM ZIYO", 2010-262 bet.

### Shpindelga zolotnik va chambaraklarni biriktirish.

*Shpindelga zolotnikni biriktirish.* Shpindel kallagiga biriktirilgan zolotnik yoki klapan shpindel o'qida erkin harakat qilishi lozim.

Zolotnik yoki klapanlar shpindel kallagiga har xil usulda biriktiriladi. Masalan, shartli o'tish diametri Ø55 mm.gacha bo'lgan ventillarda zolotnik yoki klapanni shpindelga biriktirish uchun simskoba (10.1-rasm, a), simhalqa (10.1-rasm, e, b) yoki shpindel kallagini zolotnikning uchi bilan qisish (10.1-shakl, e) yoki shpindel uchi bilan klapan (10.1-rasm, d) kallagini qisish usullaridan foydalilanadi.




**10.1-rasm.** Kichik o'tishli (diametri Ø55 mm.gacha) ventillarda shpindelga zolotnikni biriktirish.


Shartli o'tish diametri Ø55 mm.dan katta bo'lgan ventillarda zolotnik yoki klapanni shpindelga biriktirish uchun shplint yoki shtift (10.2-rasm, a), maxsus pazga

o'rnatiladigan konussimon vtulka (10.2-rasm, *b*), stopor shayba va rezbalı vtulka (10.2-rasm, *d*), 2 ta yarimhalqa, stopor shayba va rezbalı vtulka (10.2-rasm, *e*), sharchalardan (10.2-rasm, *f*) foydalaniлади.

*Korpus ichida zolotnikni yo'naltirish.* Korpus ichidagi zolotnik harakatini zolotnik ostida joylashgan to'rtta qovurg'a (10.3-rasm, *a*, *b*), yo'naltiruvchi konussimon sirt (10.3-rasm, *d*) hamda zolotnik ustida joylashgan uchta qovurga (10.3-rasm, *e*) yo'naltiradi.




**10.2-rasm.** Katta o'tishli (diametri Ø55 mm. dan katta) ventillarda shpindelga zolotnikni biriktirish.



**10.3-rasm.** Korpus ichida zolotnikni yo'naltirish.

*Shpindelga chambarakni biriktirish.* Chambaraklarning shpindelga birikadigan qismi prizmatik kesik piramida yoki silindrik shaklda bo'ladi. Chambaraklar shpindelga shayba va gayka (10.4-rasm, a, b) vositasida, shpindel uchini parchinlab (10.4-rasm, d), shuningdek, shtift yoki vint (10.4-rasm, e) kabi detallar yordamida mahkamlanadi.




**10.4-rasm.**

Shpindelga chambaraklarni biriktirish.


**Zichlagichlar.** *Zichlagich halqalar.* Armaturalarning ish magistrallaridan bug', gaz va suyuq moddalarning chiqishiga yo'l qo'ymaslik uchun har xil zichlagich

materiallardan foydalaniлади. Zatvorlarning zichlagich halqalari uchun rezina, charm, ebonit kabi yumshoq materiallardan hamda Br. OS 8-4-3, Br. OSS 3-12-5 markali bronza yoki shunga yaqin qattiq materiallardan foydalansh mumkin.

Yumshoq materiallardan ishlangan zichlagich halqalar shayba va gayka (10.5-rasm) vositasida mahkamlanadi. O'zgarmas tempe-ratura rejimida ishlaydigan armaturalarda zichlagich metall halqalar korpusning o'ziga presslanadi (10.6-rasm, a, b), o'zgaruvchan temperatura rejimida ishlaydigan armaturalarda mis qotishmasidan ishlangan zichlagich metall halqalarni bir tomonga kerib yoki ayri shaklida deformatsiyalab, korpusuga (10.6-rasm, d, e) mahkamlash mumkin.



**10.5-rasm.** Yumshoq zichlagich halqalarni mahkamlash.




**10.6-rasm.** Metall zichlagich halqalarni mahkamlash.

Qattiq va o'ta qattiq materiallardan ishlangan zichlagich metall halqalarni korpusuga rezba vositasida (10.6-rasm, f, g, h) mahkamlanadi. Qo'zgalmas birikmalarda


zichlagich halqalar sifatida rezina, charm, karton, asbest, metall hoshiyali asbest, poronit va shunga yaqin materiallardan yasalgan qistirmalar ishlatalidi.

*Salnik zichlagichlar.* Armaturaning shpindeli bilan salnik qop-qog'i oralig'ida zichlik hosil qilish uchun yumshoq tiqilmalardan foydalaniladi. Yumshoq tiqilmalar — kanop, zig'ir tolasi yoki jundan, shuningdek, asbest, charm, rezina halqalardan tuzilishi mumkin. Mustahkam zichlik hosil qilish uchun tiqilmalarni: vtulka va ustama gayka (10.7-rasm, *a*), rezbali vtulka (10.7-rasm, *b*) yoki salnik qopqogi (10.8-rasm) yordamida qisish mumkin.



Salnik qopqog'i armatura korpusiga shpilkalar (10.8-rasm, *a*, *b*), kallagi «T» shaklidagi o'rnatma (zakladnoy, 10.8-rasm, *d*) yoki tashlama (10.9-rasm) boltlar orqali

mah-kamlanadi. 10.7, 10.8, 10.9-rasmarda kanop, zig'ir tolalari yoki jun bilan to'ldirilgan tiqilmalar, 10.8-rasm, a da alohida (asbest, charm, rezina) halqalardan ishlangan tiqilmalar tasvirlangan. Armaturalarning yig'uv chizmalarida ustama gayka yoki salnik qopqoqlari 10.7, 10.9-rasmarda tasvirlanganidek ko'tarilgan vaziyatda chiziladi.



**10.9-rasm.** Salnik qopqog'ini tashlama boltlar vositasida mahkamlash.

## II BOB. KONSTRUKSIYALASHGA OID BAJARILADIGAN VAZIFALAR

II. 1-§. Fazoviy tasavvurni rivojlantirishga qaratilgan loyihalashga oid mashqlar.


1.  $V$  va  $H$  dagi proyeksiyalari kvadrat va o'rtaida ikkitadan chiziq chizilgan. Uning nimaligini aniqlang (1.1-rasm).



1.1-rasm

2. Modelning berilgan ikkita proyeksiyasi bo'yicha uchinchi proyeksiyasini aniqlang va uning yaqqol tasvirini bajaring (1.2-rasm, a, b, c, d, e, f).

3. Uchta teshik berilgan. Birinchisi  $V$ , ihkinchisi  $H$  va uchinchisi  $W$  tekislikklardagi proyeksiyalar o'rni. Shu teshiklardan tig'iz o'tadigan detallarni loyihalang (1.3-rasm, a, b, c, d va e).



1.2-rasm




a



c



b




d



e


1.3-rasm

*4.1. Simdan yasalgan modelning berilgan yaqqol tasviri asosida uning uchta ko'rinishini bajaring (1.4.<sup>A</sup>-rasm, 1-12).*




*1.4.<sup>A</sup>-rasm*

*4.2. Bir butun simdan yasalgan modelning ikkita proyeksiyasi bo'yicha uchinchi proyeksiyalarini aniqlang va yaqqol tasvirlarini bajaring (1.4.<sup>B</sup>-rasm, a, b, c, d, e, f).*




*1.4.<sup>B</sup>-rasm*

*S<sup>4</sup>. Detalning fazoviy holatini o'zgartirib chizish.* 1.5-rasmda namuna keltirilgan.




**1.5-rasm**


### Variantlar




## Variantlar





### Variantlar







*5<sup>B</sup>. Detalning shtrixlangan tomonini fikran burib, uni frontal proyeksiyalar tekisligiga parallel holatga keltirish va 3 ta ko'rinishini bajarish.* 1.6-rasmda namuna keltirilgan.





## Variantlar




## **Variantlar**









*6. Detalning goemetrik shaklini belgilangan rozmetka chizig'i (chiziqqa nuqtalar qo'yilgan) bo'yicha o'zgartiring va ko'rinishlarini bajaring.*

1.7-rasmda *a* da vazifa sharti chizmasi va *b* da uni bosqichli yechimi sifatida keltirilgan. Detallarning ham yaqqol tasviri ham ortogonal proyeksiyasida berilgan rozmetka chizig'i bo'yicha ularni loyihalashga oid variantlar berilgan.







1.7-rasm





### **Variantlar**



## Variantlar




## Variantlar




**7. Detalning ajratilgan alohida qismalarini fikran birlashtirish va uning ishchi chizmasini taxt qilish.**



1.8-rasmdadetalning yaqqol tasviri berilgan. Uning asosiy va qo'shimcha ko'rinishlari 1.9-rasm, a, b, c larda 3 xil, ya'ni proyeksiyon bog'liqlikda, proyeksiyon bog'liqlik bo'limgan va burilgan holatda berilgan. Siz faqat ulardan birini bajarishingiz mumkin.



1.8-rasm




1.9-rasm




## Variantlar



⑦



⑧




## Variantlar




**II. 2-§. Bilim, ko'nikmani tekshiruvchi va fazoviy tasavvurni rivojlantiruvchi mustahkamlash mashqlari.**

1. Uch yonli egovning sopini loyihalang hamda texnik rasmini bajaring (2.1-rasm).




**2.1-rasm**

2. Fasonli, liskali, bo'rtiqqli valni loyihalang va uning texnik rasmini bajaring (2.2-rasm).



**2.2-rasm**




**2.3-rasm**


3. Detalning yakunlanmagan bosh ko'rinishi va kesimlari berilgan. Kesimlar asosida bosh ko'rinishni yakunlang (2.3-rasm).

4. Detalning bosh ko'rinishi konturi va ustdan ko'rinishining yarmi berilgan (2.4-rasm). Kerakli qirqimni bajaring hamda ustdan ko'rinishni to'ldiring.

5. Detalning yaqqol tasviri berilgan (2.5-rasm). Uni fikran shunday buringki, A yog'i bilan H da yotsin. Detalning yangi vaziyatdagi holatining eskizini chizing va kerakli qirqimlarini bajaring.




**2.4-rasm**




**2.5-rasm**

6. Detalning  $H$ ,  $V$  va  $W$  dagi ko‘rinishlarining yarmilari berilgan (2.6-rasm). Detal ko‘rinishlarini to‘ldiring va texnik rasmini bajaring.



2.6-rasm

7. Chizmada detalning qirqilgan joyi ko‘rsatilgan (2.7-rasm). U qanday detal? Qaysi ko‘rinishda tasvirlangan? Detalning texnik rasmini bajaring va talab qilingan ko‘rinishlarini tiklang.




2.7-rasm

8. Tayanch deb nomlangan detal umumiy o‘qqa ega ikkita silindr dan iborat bo‘lib, umumiy uzunligi 50 mm. Ostki silindrning diametri  $\varnothing 70$  mm, balandligi 10 mm. Ustki silindrning diametri  $\varnothing 30$  mm. O‘qi bo‘yicha ustdan kvadrat kesimli prizmatik teshik o‘yilgan. Uning o‘lchamlari  $10 \times 10$  mm, uzunligi 20 mm, ostidagi silindrik teshikning diametri  $\varnothing 24$  mm. Ushbu ma’lumotlar bo‘yicha detalning texnik rasmi va kerakli ko‘rinishdagi chizmasini qirqimi bilan bajaring.

9. Detalning uchta ko‘rinishi berilgan (2.8-rasm). Uning texnik rasmini quyidagi o‘zgartirishlarni hisobga olgan holda bajaring:


9.1. Konussimon bobishkani silindrik sirtga almashtiring.

- 9.2. Asosining chap tomonidagi ikkita to‘g’ri burchagini yumaloqlang.
- 9.3. Devorning yuqori qismidagi pazni yarim silindrik o‘yiqqa almashtiring.
- 9.4. Asosidagi to‘sinq pazni oching.
- 9.5. Ochiq silindrik teshikni kvadrat prizmatik teshikka almashtiring.
- 9.6. Devorning yuqori burchaklarini ixtiyoriy o‘lchamda yumaloqlang.




**2.8-rasm**


10. Qopqoq *A* ni korpus *B* ga M30 mm li shpilka bilan mustahkamlang. Shpilkali birikmani bajaring (2.9-rasm).



**2.9-rasm**



**2.10-rasm**



*b*

11. Qopqoq *A* ni korpus *B* ga M30 mm li bolt bilan mustahkamlang. Boltli birikmani bajaring (2.10-rasm, *a*).

12. Qopqoq *A* ni korpus *B* ga (2.10-rasm, *b*) M24 mm li vint yordamida mustahkamlang. Vintli birikmani bajaring.

13. Val diametri  $\varnothing 30$  mm, prizmatik shponka eni  $b=8$  mm, balandligi  $h=7$ ,

uzunligi  $l$  ni gupchak (stupitsa) uzunligidan 5...6 mm kam oling. Prizmatik shponkali birikmani bajaring.

**14.** Val diametri  $\varnothing 30$  mm, segment shponka diametri  $D=28$  mm, eni  $b=8$  mm, balandligi  $h=11$  mm li segment shponkali birikmani bajaring.

**15.** Val diametri  $\varnothing 30$  mm, ponasimon oddiy shponka eni  $b=8$  mm, balandligi  $h=7$  mm, qiyaligi  $i=1:100$ , uzunligi  $l=24\dots60$  mm orasidan tanlab olinadi. Ponasimon shponkali birikmani bajaring.


**16.** To'g'ri yonli tishli (shlitsa) birikmaning tishlari soni  $z=8$  ta, ichki diametri  $d=36$  mm, tashqi diametri  $D=40$  mm, tish eni  $b=7$  mm li tishli (shlitsali) birikmani chizing. Valdag'i qirqilgan tishlar uzunligini  $l=1,5\dots2d$ , gupchak uzunligini  $L_{gup}=1,5\dots2D$  deb oling.

**17.** Silindrik shtift diametri  $d=8$  mm, faskalari  $c=1,2$  mm li silindrik shtiflili birikma chizmasini bajaring. Vtulka diametrini  $D=56$  mm, vtulkaga kiritiladigan val diametrini  $d=30$  mm deb oling.

**18.** Vtulka diametri  $D=56$  mm, vtulkaga kiritiladigan valning diametri  $d=30$  mm, konussimon shtifining katta diametri  $d=10$  mm, kichik tomoni diametri  $d=d+1/50$  mm, faskalari  $c=1,6$  mm, konuslik  $K=(d-d)/l=1:50$  ga teng. Konussimon shtiflili birikmani bajaring.

**19.** To'g'ri o'timli quvur (truba) li birikmani bajaring. Quvurning rezbasini  $G1''$ , shartli diametri  $D_{sh}=25$  mm, rezbaning uzunligi  $l_1=15$  mm, mustanering uzunligini  $l=45$  mm, qovurg'alar sonini 4 ta, mustanering o'lcham elementlarini:  $b=4$  mm,  $b_1=2,5$  mm,  $b_2=4,5$  mm,  $s=3,3$  mm,  $s_1=5,2$  mm  $d=34$  mm,  $h=7,5$  mm deb oling (2.11-rasm, a).

**20.** O'tish mustali quvurli birikmani bajaring. Mustanering rezbalari  $G1''\times G1, 1/4''$  (shartli o'tish  $D_{SH}\times D_{SH}=25\times32$  mm), uzunligi  $l=50$  mm, qovurg'alar soni 4 ta, elementlari o'lchamlari:  $G1''$  tomonidan  $b=4$  mm,  $b_1=2,5$  mm,  $b_2=4,5$  mm,  $h=2,5$  mm,  $d_1=34$  mm,  $s=3,3$  mm,  $s_1=5,2$  mm,  $d=33,250$  mm,  $d_1=34$  mm.  $G1, 1/4''$  tomonidan  $b=4$  mm,  $b_1=2,5$  mm,  $b_2=5$  mm,  $h=3$  mm,  $d=41,912$  mm,  $d_1=42,5$  mm,  $s=5,4$  mm,  $s_1=5,4$  mm deb oling (2.11-rasm, b).



**2.11-rasm**


**21.** Silindrik tishli uzatma chizmasini chizing. Har qanday tishli g'ildirak chizmasi uning boshlang'ich aylanasi  $d$  diamtrini chizishdan boshlanadi. Moduli  $m=5\text{mm}$ , tishlar soni  $z_1=12$ ,  $z_2=20$  berilgan. Qolgan geometrik parametr o'lchamlarini quyidagi tenglamlar yordamida aniqlang. (2.12-rasm, a): shesterna (yetaklovchi) tishli g'ildirak  $d_1=mz_1=5\times 12=60$ , tishli g'ildirak (yetaklanuvchi)  $d_2=mz_2=5\times 20=100$ ,  $h_a=m$ ,  $h_f=1,25m$ ,  $h=2,25m$ ,  $d_i=m(z+2)$ ,  $d_v=0,2d_{gap}$ ,  $b=(6\dots 10)\text{m}$ ,  $d_{gap}=(1,6\dots 2)d_v$ ,  $l_{gap}=1,1b$ . Shponkali birikma turni tanlab oling.

**22.** Konussimon tishli uzatma chizmasini chizing (2.12-rasm, b). Parametrlari: modul  $m=5\text{ mm}$ , tishlar soni  $z_1=12$ ,  $z_2=20$ , boshlang'ich (bo'luvchi) aylana diametri  $d_1=mz_1$ ,  $d_2=mz_2$ , qadami  $P=m\cdot\pi$ , boshlang'ich konus yasovchisining o'qiga nisbatan og'ish burchagi shesternyada  $\operatorname{tg}\delta=z_1/z_2$ , g'ildirakda  $\operatorname{tg}\delta=z_2/z_1$ ,  $\alpha=180^\circ-2\delta$ ,  $h=2,25m$ ,  $h_a=m$ ,  $h_f=1,25m$ ,  $R_\epsilon=d_v/2\sin\delta_1=d_v/\sin\delta_2$ ,  $b=(6\dots 8)\text{m}$ , gardishning qalinligi shesternada  $a=(0,8\dots 2)\text{m}$ , g'ildirakda  $a=(1,5\dots 2,5)\text{m}$ ,  $A=(1,2\dots 1,5)\text{m}$ ,  $K=2\text{m}$ ,  $L_{gap}=1,5d_v$ ,  $d_{gap}=(1,6\dots 2)d_v$ ,  $\eta=0,1d_v$ ,  $d_v=0,2d$  olinadi.


**23.** Silindrik chervyak tishli ilashmaning chizmasini chizing. Parametrlari: tishli g'ildirak moduli  $m=4$ , g'ildirakning tishlar soni  $z_2=15$ , chervyakning diametri koefitsiyenti  $q(q=0,25z_2)=10$ , chervyakning o'rami soni  $z_1=4$ , o'qlari orasidagi masofa  $a=0,5m(z_1+q)$ , vint uzunligi  $b_1=46\text{ mm}$ ,  $c=0,2q$ ,  $\alpha=20^\circ$  deb oling. G'ildirakning chizmasi silindrik tishli g'ildirak kabi chiziladi (2.12-rasm, c).

**24.** Reykali ilashmaning chizmasini bajaring. Reykali tishli g'ildirak silindrik

tishli g'ildirak kabi chiziladi, modul  $m=5$  mm, tishlar soni  $z=20$ . Qolgan parametrlari:  $L=(z-0,5)P_m$ ,  $s=0,5\pi \cdot m$ ,  $B \leq b$  ( $b$ -silindrik tishli g'ildirak eni),  $H \geq 2h$ , qalinligi  $P_n=\pi \cdot m$ ,  $\alpha=20^\circ$ ,  $h=2,25m$ ,  $h_f=1,25m$ ,  $h_a=m$  olinsin (2.12-rasm, d).




2.12-rasm



2.13-rasm

25. Bir necha detallarning ko'rinishlari berilgan (2.13-rasm). Ulardan podshipnikni payvandlash yo'li bilan birikma yasang.


26. Bir nechta detallarning ko'rinishlari berilgan (2.14-rasm). Ulardan payvandlash usulida shkv tayyorlang.



2.14-rasm

27. Doiraviy konus va asosi kvadratli piramida berilgan (2.15-rasm). Shunday joylashtiringki, ularning o'zaro kesishish chizig'i parabola bo'lsin va uni uchta proyeksiyada bajaring.

28. Doiraviy konus va prizma berilgan (2.16-rasm). Uchta proyeksiyada ularning o'zaro kesishishidan hosil bo'ladigan giperbolni bajaring.




2.15-rasm

2.16-rasm

2.17-rasm


29. Berilgan doiraviy konus va prizmaning o'zaro kesishishidan ellips hosil bo'lsin. Hosil bo'lgan buyumning uchta proyeksiyani bajaring (2.17-rasm).

**30.** Yarim yumaloq kallakli, ikki qatorli, shaxmat tartibli parchin chok bajarilsin (2.18-rasm). Parametrlari:  $d=b+(6\dots 8)\text{mm}$ , choklanadigan list qaliligi  $\delta=8\text{ mm}$ ,  $d_0=1,1d$ ,  $\ell=2b+1,5d_0$  olinsin.




2.18-rasm

**31.** Geometrik o'qi  $H$  ga perpendikular doiraviy konus berilgan (2.19-rasm). Ushbu konus bilan kesishadigan ko'pyoqlik prizmani shunday loyihalangki, uning bir yog'i aylana, ikkinchi yog'i ellips, uchinchi yog'i parabola, to'rtinchi yog'i giperbolqa hosil qilsin.





2.19-rasm



2.20-rasm

**32.** Berilgan detalning  $B$  qismi hisobiga  $A$  chiqig'i huddi o'shanday shakl va o'lchamdagи chuqurchaga hamda silindrik chuqurcha  $C$  ni fazо hisobiga chiqiqqa almashtirilgan ko'rinishini loyihalang (2.20-rasm).

**33.** Berilgan detalning teshik va ariqchasi (paz)ga zich joylashadigan ikkinchi detalni loyihalang (2.21-rasm).




2.21-rasm


34. Modelning ikkita ko‘rinishi berilgan (2.22-rasm). Uni ko‘chirib chizing va uchunchi ko‘rinishini aniqlang. Kerakli qirqimlarini standart talabida bajaring.

35. Modelning ikkita ko‘rinishi berilgan (2.23-rasm). Ko‘chirib chizing va uchinchi ko‘rinishini aniqlang. Kerakli qirqimlarini standart talabida bajaring.


36. Modelning ikkita ko‘rinishi berilgan (2.24-rasm). Ko‘chirib chizingn va uchinchi ko‘rinishini aniqlang. Kerakli qirqimlarini standart talabida bajaring.



2.22-rasm




2.23-rasm



2.24-rasm

37. Modelning ikkita ko‘rinishi berilgan (2.25-rasm). Ko‘chirib chizing va uchinchi ko‘rinishini aniqlang. Kerakli qirqimlarini standart talabida bajaring.




2.25-rasm

38. Detalning yaqqol tasviri berilgan (2.26-rasm). Uning eskizini kerakli ko‘rinishlarda chizing. Qirqimlarini standart talabida bajaring va o‘lchamlarini qo‘ying.


39. Detalning yaqqol tasviri berilgan (2.27-rasm). Uning uchta ko‘rinishini chizing, o‘tish chiziqlari yasang va o‘lchamlarini qo‘ying?

40. Tekis qirqimli texnik detal berilgan (2.28-rasm). Undagi tekis qirqimni yasang.


41. Texnikaviy konstruksiyaning ko‘rinishlari berilgan (2.29-rasm). Uning taqribiliy yoyilmasini bajaring.




2.26-rasm



2.27-rasm




2.28-rasm




2.29-rasm

42. Detalning ko‘rinishlari berilgan (2.30-rasmsi). Undagi o‘tish chiziqlarini yasang.




2.30-rasm

43. Berilgan geometrik jism havol geometrik sirtlarining kesishgan chiziqlarini uchta ko'rinishda bajaring (2.31-rasm).



2.31-rasm


44. Valning yaqqol tasviri berilgan (2.32-rasm). Uning bosh ko'rinishini chizing. Kesimlarini turli ko'rinishlarda bajaring.




2.32-rasm

45. Detalni yaqqol tasviri berilgan (2.33-rasm). Uning uchta ko'inichini chizing va undagi o'tish chiziqlarini yasang.

46. Detalning zagatovkasi berilgan (2.34-rasm). Uning shakliga quyidagi elementlar: faska, protochka, liska, teshik, bo'rtiq, shponka pazi kabilardan uchtasini kiriting.




**2.33-rasm**




**2.34-rasm**


**47.** Detalning zagatovkasidagi qirqiladigan joylari nuqtalar bilan belgilangan chiziqda ko'rsatilgan (2.35-rasm). Tayyor mahsulot holatidagi chizmasini kerakli ko'rinishlarda tasvirlang.



**2.35-rasm**



**2.36-rasm**




**2.37-rasm**

**49.** Detalning ikkita ko'rinishi berilgan (2.36-rasm). Uning ko'rsatilgan yo'naliish bo'yicha  $90^{\circ}$  gacha burilgan vaziyatdagi chizmasini chizing.


**50.** Berilgan detalning (2.37-rasm) geometriyasni dizayin talabida o'zgartiring. Uning vaznini yengillashtiring, pishiqligini oshiring. Bularni bir nechta variantlarda bajaring.

**II. 3-§. Berilgan sxema-chizma bo'yicha qo'yilgan vazifani turlicha yechishga oid masalalar**

1. Val ko'rsatilgan yo'naliш bo'yicha aylantirilganda, sterjen  $X$  masofaga yo'naliш bo'yicha siljigandan keyin, yana o'z o'mniga darrov qaytsin. Shunday mexanizmni loyihalang (3.1-rasm).




**3.1-rasm**



**3.2-rasm**


2. Polzun (sudraluvchi) dagi  $A_1$  nuqta masofaga valning bir marta aylanishida o'tsin. Polzunning siljishi ravon bo'lsin (3.2-rasm). Shunday mexanizmni loyihalang.

3. Vintning vertikal bo'yicha ham yuqoriga, ham pastga harakatini valning aylanish yo'naliшini o'zgartirmasdan qanday ta'minlash mumkin? Bu yerda bekorga (xolostoy) yurishni ham ko'zda tutilgan holda buyumni loyihalang (3.3-rasm).




**3.3-rasm**

4. Chambarak (maxovik) aylantirilganda vint  $V$  ning ikkala tomonga gorizontal harakat qilish jarayonini loyihalang (3.4 -rasm).




3.4-rasm

5. Birinchi yetakchi val bir tononlama, bir me'yorda aylanganda, qanday qilib ikkinchi valni ikki tomonlama ravon aylanishiga majbur qilish mumkin (3.5-rasm)? Shunday mexanizmni loyihalang.




3.5-rasm




3.6-rasm

6. Silindrik stakan 1 jism A ga shunday mustahkamlansinki, vint 2 burilganda stakan aylanmasin. Vint 2 jism A ga taqlaganda mustahkamlik o'z-o'zidan avtomatik tarzda buzilsin (3.6-rasm). Ushbu jarayon mexanizmini loyihalang.

7. O'zaro "Qaldirg'och duma" usuliga biriktirilgan ikkita disk A va B val 1 yordamida aylanma hatakatga keltirilganda B disk markazining A disk markaziga siljishini ta'minlaydi. Disk A val bilan qattiq mahkamlangan. Qo'zg'almas qilib mustahkamlangan qalam disk B sirtida ellips chizadigan mexanizmni loyihalang (3.7-rasm).




**3.7-rasm**



**3.8-rasm**

**8.** Vál 1 aylantirilganda reyka 2 vertikal harakat qilishi ta'minlanadigan mexanizmni loyihalang (3.8-rasm).


**9.** Ikki qo'lli arrada yog'ochni bir kishi aralaydigan moslamani loyihalang (3.9-rasm).




**3.9-rasm**

**10.** Konteynerdag'i silindrik valiklarni bir me'yorda tashqariga, ya'ni pastga itarib chiqaruvchi mexanizmni loyihalang (3.10-rasm).

**11.** Detallarni qisib turuvchi vintli moslamada kamchilik mavjud. Detal 1 ni chiqarib olish uchun vint 2 ni ko'p marta aylantirishga to'g'ri keladi. Moslamaning konstruksiyasiga shunday o'zgartirish kiritish kerakki, vintning bir yoki bir yarim marta aylanishidan so'ng detal osonlikcha chiqarib olinsin (3.11-rasm). Shu jarayonni loyihalang.




3.10-rasm




3.11-rasm

12. Ilgarilanma-qaytma harakat qiluvchi zveno 1 yetakchi hisoblanadi. Zveno 1 ning yuqori va pastga harakatlanayotganida detal 2 ning bir tomonloma aylanishini ta'minlaydigan mexanizmni loyihalang (3.12-rasm).




3.12-rasm




3.13-rasm

13. Katta sig'imdagi idishda ikki hil A va B gaz aralashitirilib, tarmoqqa yuboriladi. Gazlardan biri to'xtab qolsa, gazlarni darrov berkitadigan moslamani loyihalang (3.13-rasm).

14. Yetakchi val 1 soat mili yo'naliishi bo'yicha aylanadi. Zveno 2 ning ilgarilanama-qaytma harakat qilishini ta'minlaydigan moslamani loyihalang (3.14-rasm).




3.14-rasm



3.15-rasm


15. Bir meyorda aylanadigan val 1 va silkinadigan richag 2 berilgan (3.15-rasm). Valnning bir marta aylanishida richak ikkita silkinish siklini bajaradigan moslamani loyihalang.

16. Bug'li klapanning ventili berilgan (3.16-rasm). Shpindelga mahovik (chambarak), salnikli zichlagich va o'z-o'zini o'rnatuvchi klapanli birikmani bajaring.




3.16-rasm

17. Qo'lda tikish ignalari saqlanadigan buyum (silindrik qin) ning korpusi berilgan (3.17-rasm). Unga qopqoq sifatida barmoqqa kiydiriladigan angishvonani loyihalang. Korpus va qopqoq o'zaro qanday mustahkam o'rnatilishi va qulay ochilishini hisobga oling.



3.17-rasm

18. Pishloq keskichning (3.18-rasm) konstruktiv takomillashmagan tomonlarini aniqlang va uni qanday qilib takomillashtirish yo'llarini izlang va qulay pishloq keskich loyihalansin.



3.18-rasm

19. Klapan 2 ga o'z-o'zidan o'rnatiladigan shpindel 1 ning uchini loyihalang (3.19-rasm, a).


20. Shpindel uchi kiritiladigan klapanning teshigini shpindel uchiga moslab loyihalang (3.19-rasm, b).

21. Podshipnikni valga o'tqazadigan moslamani loyihalang (3.20-rasm).


22. Poshibnikni korpusga o'tqazadigan moslamani loyihlang (3.21-rasm).

23. Bir vaqtning o'zida poshibnikni valga hamda korpusga o'tqazadigan moslamani loyihalang (3.22-rasm).


24. Vtulkani tishli g'ildirak teshigiga o'tqaziladigan moslamani loyihalang (3.23-rasm).




3.19-rasm




3.20-rasm



3.21-rasm




3.22-rasm




3.23-rasm

**Salnikli birikma moslamasini loyihalash.** Harakatlanuvchi detal (vallar, shtoklar, shpindellar) bilan qo'zg'almas korpus orasidagi tirkishini germetik berkitib turadigan tiqinli tuzulma salnikli moslama hisoblanadi. Tiqin yumshoq (asbest, kigiz, moylangan kanop va boshqa) materiallardan tashkil topadi.

**25.** Shpilka (vint)lar yordamida siqiladigan qopqoqli salnikli moslamani loyihalang (3.24-rasm).



3.24-rasm




3.25-rasm

26. Ankerli boltlar yordamida siqiladigan qopqoqli salnikli moslamani bajaring (3.25-rasm).


27. Ustama gayka yordamida siqiladigan vtulkali salnikli moslamani bajaring (3.26-rasm).

28. Rezbali vtulka yordamida qisiladigan salnikli moslamani bajaring (3.27-rasm).

29. Bir butun sim bo'lagidan eshikni yopiq holatda saqlab turuvchi ilmoq yasang. Ilmoqning bir uchi *A* va *B* teshiklardan biriga mustahkamlangan, ikkinchi uchi kirib turadigan bo'lsin (3.28-rasm).



3.26-rasm



3.27-rasm


30. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi taxtachaning ikkita ko'rinishi berilgan (3.29-rasm). Undan savzavot to'g'raydigan buyum loyihalang. Buyumda ushlaydigan sop, mixga ilib qo'yadigan teshik, havfsizlikni saqlash uchun burchaklari yumaloqlang. Loyihada buyumning ko'rinishi dizayn talablariga to'liq javob berishi lozim.

31. Silindrik sirtni gorizontal holatda, diametridan 3 marta uzunlikda oling. Uning o'ng tomonida eni silindr diametrining chorak qismiga teng, diametri 8 mm ga teng


bo'rtiqni qo'shib chizing. Silindrning chap toretsidan uning diametrining yarmiga teng uzunlikda o'qidan chorak diametr balandlikda liska (taqir) hosil qiling. Liskaning o'rtasidan ochiq silindrik teshikcha o'ying. Texnikaning talabiga muvofiq faskalar bilan ta'minlang. Silindrik va bo'rtiq galtej bilan mustahkamlansin. Silindrning diametri ixtiyoriy tanlansin.

**32.** Butun detalning ajratilgan bo'laklari tasvirlangan (3.30-rasm). Shu bo'laklardan aslini yig'ing va bo'laklari oraliq'ida hosil bo'ladigan chiziqlar standartga muvofiq bir butun detal deb qarang hamda ortiqchalarini o'chiring.


**33.** Detalning ikkita ko'rinishi berilgan (3.31-rasm). Detalni bo'laklarga ajratib, har bir jismni alohida kerakli ko'rinishlarda chizing hamda yaqqol tasvirlari bajaring.





3.28-rasm



3.29-rasm



3.30-rasm




3.31-rasm


**34. Avtomobil ko'zgusi.** Har qanday avtomobilda salondan tashqari haydovchining chap yonida eshikka yoki kuzovga o'rnatilgan ko'zgu bo'ladi. Uning asosiy vazifasi haydovchi avtomobilni chapga yoki o'ngga burmoqchi bo'lгanda yon va orqadan yaqinlashib kelayotgan transportni haydovchining ko'ra olish imkoniyatini ta'minlashdir.

Ko'zgu (yaqqol tasvirga qaralsin, 3.32-rasm) *a* asosan uch qismdan: asos (1), richag (2) ko'zgu (3) lardan iboratdir. Haydovchining ko'zguni o'ziga qulay holatda burib ola olishi uchun ular bir-biriga sharnirlar yordamida biriktirilgan. Richag (2) ning bir uchida shar uchun uyacha bo'lib, unga ko'zguni ulovchi sterjenning shar shaklidagi kallasi o'rnatiladi. U zavod sharoitida ajralmas qilib yig'ilgan. Richagning ikkinchi uchi shar shaklidagi kallak bilan yakunlangan bo'lib u asos teshigagi *L* yo'nalish bo'yicha kichkina oraliq (azor) hisobiga kiritiladi. 3.32-rasm, *b* da asos 1 ning chizmasi keltirilgan.

**Vazifa shartlari:** 1. Rigachni asosdan qayta chiqib ketmasligini va uni uyachada mahkam qisilib turishini ta'minlaydigan moslamaning yig'ish chizmasi bajarilsin.

2. Yangi detallarning eskizi bajarilsin va chizma taxt qilinsin.






**b)**  
3.32-rasm

**35. Stol lampasi.** Chizmada stol ustida turadigan elektr chiroqning sxematik tasviri berilgan: *A* – stoldagi taglikka ega bo’lgan vertikal shtativ; *D* – nur qaytargich; *B* – nur qaytargichni shtativ bilan o’lchaydigan oraliq trubacha; *S* – oraliq trubachani vertikal shtativ bilan birlashtiradigan moslama; *E* – nur qaytargich qalpoqcha bilan oraliq trubachani birlashtiradigan moslama.

**Vazifa shartlari:** 1. Oraliq trubachani vertikal shtativ (*A*) bo'yicha yuqori va pastga, shuningdek uning atrofida aylanma harakatni ta'minlaydigan S moslama loyihasini va uning yig'ish chizmasi bajarilsin.

Moslama tarkibidagi detallarning eskizi chizilsin.

2. Nur qaytargich (*D*) oraliq trubacha (*B*) uchi bilan birlashtirilganda nur qaytargich qalpoqchasingin vertikal burchaklar bo'yicha burila olishini ta'minlaydigan birikitirish tushunchasi (*E*) loyihalansin. Tushunchaning yig'ish chizmasi bajarilib uning tarkibidagi detallarning eskizlari chizilsin (3.33-rasm).



a)

33.3-rasm

b)

**V.A.Gerverning o'qituvchilar uchun yozgan “Творческие задачи по черчению” kitobidan olingan ijodiy masalalar.<sup>6</sup>**

**Chizmachilikdagi loyihalash darslarini o'qitishdagi ijodkorlik.** Umumiy ko'o'rinishda, odatda, *ijod* deganda ma'lum vaqtida va ma'lum vaziyatda kerakli va foydalii sanalgan yangilikni yaratish tushuniladi. O'z navbatida, *yangilik* deganda avvallari shu ko'rinishda mavjud bo'limgan, ma'lum bo'lib ulgurgan materiallarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan, ammo tugallangan ko'rinishida avval ma'lum bo'limgan elementlarni muqarrar ravishda o'z ichiga olgan texnik fikrlash mahsuli tushuniladi.

Yangilik *ob'ektiv* va *sub'ektiv* bo'lishi mumkin, deb hisoblanadi. *Ob'ektiv yangilik* deganda shunday mahsul tushuniladiki, unga mos keladigani avval mavjud bo'limgan. Bordi-yu, u faqat yaratuvchi uchun yangilik bo'lsa, u *sub'ektiv yangilik* sanaladi. Qanday o'quv mehnatini ijodiy deb baholash mumkinligini tushunishga shu nuqtai nazardan yondashish mumkin. Ko'pgina vaziyatlarda o'quv mehnati sub'ektiv yangi natijani keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, o'quvchilarning ijodiy mehnati maksimal darajada mustaqil bo'lгanda ham baribir o'quv jarayonini tartibga soladigan o'qituvchi rahbarligida kechadi.

Buni shunday tushunish kerakki, xatto mehnatning pirovard natijasi originalligi (o'ziga xosligi) ma'lum ma'noda dasturlashtirilgan, zero o'quvchi yechimi allaqachon mavjud va o'qituvchiga ma'lum ekaniga shubha ham qilmasdan «*kashfiyot qilishi*» mumkin.

Mashhur rus konstruktori A.S.Yakovlev aytganidek: “*Sodda yechimni topishda tejamkor konstruksiyalashni bilih zarurligi eng qiyinligi barchaga ma'lum. Kishi o'z irodasida sabr-toqatlilik, menimcha, hattoki bardoshlilikni tarbiyalashi zarur. Shuningdek, kim bo'lishidan qat'iy nazar u bilan bahslasha olish va o'z fikr-mulohazasini himoya qilishni bilih kerak.*”

Istalgan ijodiy, jumladan, o'quv ishi mavjud tajribani o'rganish va qayta anglab yetish, texnik prototiplarni tahlil qilish, dastlabki, jumladan, kombinator xarakterdagi

<sup>6</sup> В.А.Гервер. Творческие задачи по черчению. М., «Просвещение». 1991- 128 стр.

ma'lumotlarni qayta qurish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga olishi lozim. Qayta qurishning bu oxirgi ko'rinishi, psixolog *N.P. Linkovaning* fikricha, konstrukturlik faoliyati uchun ayniqsa o'ziga xos sanaladi.

Chizmachilik kursi bo'yicha ijodiy masalalar tizimini ishlab chiqishda o'quvchilarda yuqorida sanab o'tilgan amallarni bajarishni talab etadigan sharoitni modellashtirish kerak. Albatta, har bir muayyan vaziyatda ular turlicha proporsiya (nisbat) va birikishda namoyon bo'lib, ijodiy fikrlashning turli tomonlarini rivojlantiradi, biroq har bir masala uchun umumiy sifat xos, ya'ni uni yechish algoritmi, garchi yechish uchun barcha zarur ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, o'quvchilarga ma'lum emas.


Texnik masala sharti muammoli vaziyatni keltirib chiqarishni ko'zda tutishi, yechish esa avval o'zlashtirilgan (eski) bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llashga, ba'zida yangilarini mustaqil egallashga undashi lozim. Nihoyat, ijodiy masalalarning majburiy xususiyati ularni yechishning variativligi sanaladi. Faqat shu holdagina individual izlanish yuzaga keladi, uning yakuni, ya'ni sub'ekti yangi natija sanaladi. Yechimning ehtimoliy yo'llari mavjud bo'lmasa, demak, ijod ham bo'lmaydi.

**Chizmachilikdagi ijodiy masalalarning yo'nalishi va ko'rinishlari.** O'quvchilarning loyihalash faoliyatiga umumiy tayyorgarligining o'sishini 3.1-jadvaldan ko'rish mumkin. Taklif etilayotgan variant yagona bo'lmay, u o'quvchilarda loyihalash faoliyati shakkllantiradi va keyinchalik maqsadaga muvofiq masalalarni qayta ishlashga kuch beradi. Bu yerdagi barcha masalalar buyumning chizmasidagi yetishmagan ma'lumotlari bo'yicha uni modellashtirishga qaratilgan.

Chizmachilik bo'yicha ijodiy masalalarning barchasida o'quvchilardan u yoki bu kasb uchun xos bo'lgan maxsus bilimlarni talab qilmaydigan grafik ishlari asosiy o'rinn tutishi lozim. Arxitektura va dizayndagi loyihalash ishlari masalalari bilan grafik faoliyatning kengqamrovli hamohangligi 3.2-jadvalda keltirilgan.

Chizmachilik va konstruksiyalash (umuman, loyihaçilik faoliyatining boshqa turlari uchun ham) uchun umumiy bo'lgan asosiy sifat ko'rsatkichi - grafik bilimlarni yangi, muayyan vaziyatda qo'llay olish malakasi sanaladi.

3.1-jadval



Ish davomida ob'yeqt konstruksiyasi aniqlashtiriladi, ba'zida jiddiy tarzda o'zgartiriladi, shu sababli o'quvchi o'zi yaratgan grafik asosga tuzatish kiritish, qolaversa, buni chizmachilik qoidalariga muvofiq amalga oshirishni uddalay olishi lozim.

### 3.2-jadval



Boshqacha aytganda, shaklni xayolan o'zgartirish bilan parallel ravishda o'quvchilar grafik o'zgartirishlarni ham amalga oshirishi lozim. Nihoyat, ishning yakunlovchi qismida o'quvchilar oldida yanada qiyin muammo yuzaga keladi: ijodiy ish natijasini chizmada savodli aks ettirish lozim bo'ladi. Bunda tasvirlarning ob'yekt shaklining xususiyatlarini yetarlicha to'liq va ifodali tarzda ohib beradigan optimal miqdoridan foydalanish kerak. Qiyinchilik shundan iboratki, bu vaziyatda o'quvchilar o'zlariga ma'lum bo'lgan tasvirlar yasashning barcha usullarini sinab ko'rishi va keraklisini tanlashi, zarur qoidalarni esga olishi hamda ulardan foydalanishi talab etiladi.

O'qituvchi chizmachilikdan ijodiy masalalarda konstruktorlik bilim va malakalarining **qaysi elementlari** aks etishi lozimligi va bu **nima uchun** qilinishini tushunib yetishi muhim. Ishni oxiridan boshlaymiz. Chizmachilik kursida ob'yekt shakli

va joylashishini xayolan o'zgartirishga oid masalalar o'rinni olgan bo'ladi, biroq bu o'zgartirishlarning pirovard maqsadi o'zgartirishlarning o'zi sanaladi. Bu masalalarning o'quvchilarning obrazli fikrlashini rivojlantirishdagi rolini inkor etib bo'lmaydi, biroq o'zgartirishlarning metodistlarga tushunarli bo'lgan mazmuni (mohiyati) o'quvchilar uchun noma'lumligicha qolardi, shu sababli bu masalalarga qiziqish uyg'onmasdi.

Konstruktiv o'zgartirishlarga oid masalalar o'quvchilar uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi, zero ularda muayyan texnik maqsad tushunarli tarzda qo'yiladi. Bu maqsadga erishishga intilish ishga qiziqishni rag'batlaydi. Asosiy konstruktorlik bilim va malakalarining tarkibiy qismlari nimalardan iborat? Qator pedagogik tadqiqotlar natijalarini jamlab, aytish mumkinki, ularga ko'p hollarda quyidagilarni kiritishadi:

1. Konstruksiyalarga qo'yiladigan umumiy (funksional, ergonomik, estetik va boshqa) talablarni bilish.
2. Chizmalarni o'qish va bajarish malakasi.
3. Detallarning optimal shakl va o'lchamlarini tanlash malakasi.
4. Materialni tanlay bilish.
5. Qayta ishlash usullarini bilish.
6. Kerakli hisoblashlarni amalga oshira bilish.
7. Detallarni birlashtirishning namunaviy (tipovoy) usullarini bilish.
8. Standartlar va ma'lumotnomalar xarakteridagi adabiyotlardan foydalana bilish.
9. Yaratilgan konstruksiyalarni sinashni o'tkaza bilish.
10. Mexanizmlar bilan ishlashda xavfsizlik texnikasi qoidalarini bilish.

Loyihalash elementlari bo'lgan ijodiy masalalarni tuzishda avvalo obyektni to'g'ri tanlash zarur. Biroq bu yerda murakkablik ya'ni, mehnatning mashaqatliligi nazarda tutiladi. Birinchidan, o'qishning ilk bosqichida tasniflanmagan obyektlar tanlanadi, ya'ni yig'ish operasiyalari qatnashmagan bir detalli buyumlar. Biroq o'quvchilarga ikki va undan ortiq detaldan tuzilgan ob'yeqtlar sezilarli darajada kamligi ma'lum. Ikkinchidan, grafik faoliyat nuqtai nazaridan shakli qiziqish uyg'otadigan buyumlarni tanlash lozim. Bunda mumkin qadar buyumming shakli zamonaviy (ma'naviy eskirgan bo'lmasligi)

bo'lishi va nihoyat uni maktab ustaxonasida tayyorlash mumkinligi ta'minlanishi kerak. Keyingi loyihalashga oid masalalar davomi yig'ish chizmalarini tuzish va uni o'qishga qaratilishi o'quvchiga uqtirib boriladi. Ularda bu murakkab jarayonga tayyorgarlik psixologiyasi shakllantiriladi.

Konstruksiyalashga o'rgatishda tavsiya qilinadigan ma'lum ish turlari tahlilida aniqlandiki, ular chizmachilik mantig'iga ayniqsa (hammasidan ko'ra, xususan) yaqinligi ko'rindi:

- 1) konstruksiyaning yetishmaydigan bo'g'inini to'ldirish (konstruksiyalashni oxiriga etkazish);
- 2) prototip tahlili asosida konstruksiyani takomillashtirish (qayta konstruksiyalash);
- 3) texnik shartlar bo'yicha (predmetli-grafik tayanchlar bilan) konstruksiyalash chizmachilik mantig'iga tobora yaqin sanaladi.

O'quv ishining sanab o'tilgan turlari chizmachilikni o'qitish jarayonlarini faollashtiradi, chunki ular grafik tasvirlardan foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Bundan tashqari, ular sxema bo'yicha yoki o'z g'oyasiga ko'ra konstruksiyalashga nisbatan ancha soddaligi bilan ajralib turadi.

Konstruksiyalashni oxiriga yetkazish, qayta konstruksiyalash va texnik shartlar bo'yicha konstruksiyalash asosida o'quvchilarning konstruktiv-grafik faoliyati o'ziga xosligi sifatida **texnik yechimlarni izlash** va ularni **grafik tasvirlash** yotadi.

Ijodiy masalalar mazmuni va ulardan o'quv jarayonida foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlashda o'quvchilarning konstruktiv-grafik faoliyatiga hamroh bo'lgan xarakterli xususiyatlarni hisobga olish muhim sanaladi. Birinchidan, o'quvchilar ularda shakllangan grafik bilimlarni qay darajada qo'llay olishini bilish; ikkinchidan, ijodiy ish jarayonida qanday xarakterli qiyinchiliklar yuzaga kelishi va ularning qay tarzda oldini olishni tushunish zarur. O'quvchilar tomonidan konstruksiyalash elementlari kiritilgan ijodiy masalalarni yechish xususiyatlarini o'rganganda quyidagilar e'tiborni tortadi:

1. O'quvchilarning qiyinchiliklari masalaning dastlabki ma'lumotlarini tahlil qila bilmaslik (konstruksiyadagi asosiy ziddiyatni topa olmaslik, mavjud bo'limgan detal qaysi talablarga javob berishi va qanday ishlashi kerakligini tushunmaslik)dan boshlanadi. Bu o'quvchilarning izlanuvchilik faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazadi va pirovardida masalaning noratsional yechilishiga olib keladi.

2. Konstruktiv g'oyani grafik aks ettirishdagi qiyinchiliklar va o'quvchilar yo'l qo'yadigan xatoliklar, asosan, avval shakllangan grafik bilimlarni yangi vaziyatda qo'llay bilmaslik bilan bog'liq. Muayyan tarzda bu quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

a) konstruksiyaning xususiyatlarini etarli darajada to'liq va ifodali aks ettiradigan tasvirlarning optimal miqdorini tanlay bilmaslik;

b) konstruksiyada asosiyini ajratib ko'rsatish imkonini beradigan miqyosni (masshtabni) tanlay bilmaslik;

v) tasvirlarni chizmada joylashtirish (komponovka)da qiyinchiliklar;

g) chizmachilikning umumiyligini qoidalarini buzish bilan bog'liq xatoliklar.


3. O'quvchilar tomonidan biz shartli ravishda «tayanch» deb atagan tasvirlarning bajarilishi grafik izlanishning xarakterli bosqichi sanaladi, ularda, odatda, bo'lg'usi konstruksiyaning ongimizda yuzaga kelgan yadrosini qayd qilishga urinish mujassam bo'ladi.

Boshlang'ich (dastlabki) konstruksiyani o'rganish uchun masalaning eng oddiy pirovard (yakuniy) natijasini olishga yo'naltirilgan sharti beriladi. Ilova yanada keng imkoniyatlarga ega bo'lgan konstruksiyani ishlab chiqishga yo'l ochadi, biroq bunda izlanish mahsulot bitta detaldan tarkib topishi kerakligi bilan limitlanadi. Buni aytib o'tish juda muhim, chunki yig'ish chizmalarini o'rganmagan o'quvchilar orasida ixtisoslashtirilgan mahsulotni qanday chizishni bilmasdan turib, uni ishlab chiqishni istaydiganlar ko'plab topilishi mumkin.


O‘quvchilarning loyihalash faoliyatiga umumiy tayyoragarligini shakllantiruvchi ijodiy masalalar.

*1.2.1. Texnik rasmida yetishmovchi chiziqlari bilan berilgan modelning turli shakllarini loyihalash.*

*Vazifa sharti.* Buyumning texnik rasmi yakunlansin.





1.2.1- vazifaning *a* variantini yechimlari.




*1.3.1. Ko'rinishlarida yetishmovchi chiziqlari bilan berilgan modelning  
turlu shakllarini loyihalash*

- Vazifa shartlari.* 1. Ko'rinishlarda qoldirib ketilgan chiziqlarni to'ldiring.  
2. Chapdan ko'rinishini bajaring.  
3. Texnik rasmini bajaring.






1.3.1- vazifaning *a* variantini yechimlari.




**1.4.1. Kesuvchi tekislik vaziyati, qirqimga kirgan qismi va kesim elementlari bo'yicha "aylanma" detallarning turli shakllarini loyihalash.**

**Vazifa shartlari.** Agar vazifaning: 1) qirqim tarkibidagi kesim elementlari va gabariti; 2) aylanish o'qi berilgan bo'lsa "aylanma" detalning chizmasi ko'rinishning yarmini qirqimning yarmi bilan birlashtirish orqali ish chizmasi bajarilsin.

**Eslatma.** Yechimdag'i tasvirga ichki va tashqi rezbalarni qo'shish mumkin.




1.4.1- vazifaning *a* variantini yechimlari.



**1.5.1. Simmetriya o‘qi vaziyati, ichki va tashqi konturlari kabi elementlari bo‘yicha  
“aylanma” detallarning turli shakllarini loyihalash.**


**Vazifa shartlari.** Ichki va tashqi konturlarini mustaqil ravishda to‘ldirib, ko‘rinishning yarmini qirqimning yarmi bilan birlashtirish orqali “aylanma” detallarning ish chizmasi bajarilsin.

a) Tashqi konturi




Ichki konturi

b) Tashqi konturi




Ichki konturi

v) Tashqi konturi




Ichki konturi

g) Tashqi konturi




Ichki konturi

d) Tashqi konturi





Ichki konturi

e) Tashqi konturi



Ichki konturi

**1.5.1- vazifaning a variantini yechimlari.**



**1.6.1. Bir ko'rinishi va qolgan tasvirlarining gabaritlari bo'yicha modellarning turli shakllarini loyihalash.**

**Vazifa shartlari.** 1. Bosh ko'rinishi ma'lum, qolgan proyeksiyalarining gabaritlari berilgan buyumning ishchi chizmasi bajarilsin.

2. Texnik rasmi bajarilsin.

*a)*



*b)*



*v)*



*g)*



*d)*



*e)*



*j)*






*z)*



*i)*



1.6.1- vazifaning *a* variantini yechimlari.




1.7.1. Bir ko'rinishi va ikkinchi tasvirining gabariti bo'yicha (qo'shimcha elementlarni ketma-ketlikda qo'shish bilan) modellarning turli shakllarini loyihelash.


*Vazifa shartlari.* Berilgan bitta ko'rinishi va ikkinchinining gabariti bo'yicha buyumning 3 ta proyeksiyasi bajarilsin.

*Eslatma.* Qo'shimcha elementlarni qo'shish sharti bilan vazifa bosqichma-bosqich murakkablashib boradi.



a)






b)





c)



d)







d)







e)




j)



z)











1.7.1- vazifaning *a* variantini yechimlari.




*1.8.1. Qirqimi va ustdan ko'rinishining gabariti bo'yicha modellarning turli shakllarini loyihalash.*

*Vazifa shartlari.* 1. Berilgan frontal qirqimi va ustki ko'rinishining gabariti bo'yicha buyumming ustdan va chapdan ko'rinishlari bilan birgalikda ich chizmasi bajarilsin.

2. Texnik rasmi bajarilsin.







1.8.1- vazifaning *a* variantini yechimlari.









**1.9.1. Qirqimi va ustdan ko'rinishining gabaritli bo'yicha modellarning turli shakllarini loyihalash.**


**Vazifa shartlari.** 1. Berilgan frontal qirqimi va ustki ko'rinishining gabariti bo'yicha buyumning ustdan va chapdan ko'rishlari bilan birlgilikda ich chizmasi bajarilsin.

2. Texnik rasmi bajarilsin.





1.9.1- vazifaning  $\alpha$  variantini yechimlari.



### **1.10.1. Tavsifi (nazariy chizmasi) bo'yicha modelning shaklini loyihalash.**

**Vazifa shartlari.** Tavsifi bo'yicha buyumning texnik rasmi bajarilsin.

a) Uzunligi 100 mm, eni 50 mm va balandligi 52 mm prizma berilgan. Uning ustiga o'qi prizmaning markazidan o'tgan diametri 40 mm vertikal silindr qo'yilgan. Uning o'qi bo'yicha yuqoridan boshlab diametri Ø30 mm va chuqurligi 20 mm silindr o'yib olingan. Silindrning davomida to'rtburchak prizma teshilgan. To'rtburchakning ikki uchi gorizontal o'qqa joylashgan bo'lib, tomonlarining uzunligi 15 mm ga teng. Asosning to'rtta uchi radiusi 10 mm ga teng silindr bilan yumoloqlangan. Asos plitaning chap va o'ng tomonlardan markazlari simmetriya o'qining kontur chizig'i bilan kesishgan nuqtalarida joylashgan ikki yarim silindr o'yib olingan. Uning radiusi R10 mm ga teng.

Buyumning texnik rasmi qiyshiq burchakli dimetriya qoidalariga asosan bajarilsin.

b) Uzunligi 80 mm, eni 40 mm va balandligi 15 mm prizma berilgan. Uning chap tomonidan 20 mm masofada markaziy frontal o'qqa simmetrik ravishda 20×20 mm li vertikal prizma o'yib olingan. Berilgan prizmaning o'ng oldi va orqasidan boshlab qalinligi 12 mm, uzunligi 32 mm, balandligi 30 mm ikki prizma qo'yilgan. Ularning tashqi tomonlari asosining oldi va orqa tomonlari bilan bir tekislikni tashkil qiladi. Ularning o'ng tomoni asosning o'ng tomoni bilan ustma-ust tushgan. Ustiga qo'yilgan ikki prizmaning yuqori tomoni Ø16 mm li radiusli yarim silindrler bilan yakunlangan. Silindrlerning markazi orqali Ø20 mm diametrli silindr teshib o'tgan.

Buyumning texnik rasmi to'g'ri burchakli izometriya qoidalariga asosan bajarilsin.

v) Vtulkaning tashqi sirti kesik konus shaklida bo'lib, uning bitta asosi Ø30 mm ga , ikkinchi asosi esa Ø50 mm ga teng. Konusning katta asosi tomonida kvadrat prizma shaklidagi flanets bor (kvadratning o'lchamlari 50×50 mm, flanetsni qalinligi 10 mm). Vtulkaning ichida tashqi sirt bilan o'qdosh Ø20 mm li silindrik ochiq teshik bor. Vtulkaning umumiyligi uzunligi 60mm.

Buyumning texnik rasmi qiyshiq burchakli dimetriya qoidalariga asosan bajarilsin.

g) Korpus ichi bo'sh to'g'ri burchakli parallelepipeddan iboratdir (uzunligi 90 mm, eni 60 mm, balandligi 50 mm). Korpus devorlarining qalinligi hamma joyida bir xil bo'lib, u 10 mm ga tengdir. Korpusning chap yoqining o'rtasida Ø30 mm li ochiq silindrik va o'ng yoqining o'rtasida esa kvadrat shaklidagi ochiq teshiklar bor (kvadrat 20×20 mm).


Buyumning texnik rasmi to'gri burchakli izometriya qoidalariga asosan bajarilsin.

d) Ø30 mm li silindrik vtulkani bir uchiga kvadrat shaklidagi flanets o'rnatilgan (kvadratning o'lchamlari 50×50 mm, flanetsning qalinligi 10 mm). Vtulkada tashqi sirt bilan o'qdosh Ø20 mm li silindrik ochiq teshik bor. Vtulkaning umumiyligi uzunligi 70 mm.

Buyumning texnik rasmi qiyshiq burchakli dimetriya qoidalariga asosan bajarilsin.


#### *1.11.1. Kubning yoyilmasi chizmasini bajarish.*

Qog'oz yoki kartondan yelimalsh orqali kub yasash uchun dastlab, uning yoyilmasini chizish kerak. Bunda bukilish joylari va o'zaro yelimanadigan qismlarini avvaldan tasavvur qilish ya'ni, ko'z oldiga keltirish zarur bo'ladi. quyidagi rasmda bu holat strelkalar orqali ko'rsatilgan.



*Vazifa shartlari.* Kubning yoyilmasi uning yoqlari va yelimlash uchun bukilgan joylari o'rnini o'zgartirish bilan bajarilsin. Kub modelida o'zaro yelmlanadigan elementlarining uchrashishi strelkalar orqali sxematik ko'rsatilsin.

#### 1.11.1- vazifaning yechimi.




#### 1.11.2. Berilgan yaqqol tasviri yoki ko'rinishlari bo'yicha buyumning yoyilmalarini bajarish.

*Vazifa shartlari.* Proyeksiyalashni o'qitish uchun model yoyilmasining chizmasi bajarilsin. Bunda kubning o'zaro yelmlanadigan elementlarini bukilash joylarining uchrashishi holati strelkalar bilan ko'rsatilsin.

*Eslatma.* Yoyilma yaxlit figuradan tuzilishi shart.


a)




b)




v)





g)






1.11.2- vazifaning *a* variantini yechimlari.






**1.11.3. Buyumning berilgan yoyilmasi bo'yicha uning eskizi va texnik rasmini bajarish.**

*Vazifa shartlari.* Yoyilmasi bo'yicha buyumning eskizi va texnik rasmi bajarilsin. Materialning qaliligi 2 mm atrofida.



1.11.3- vazifaning *a* variantini yechimlari.



**Texnik loyihalash elementlari bo'lgan ijodiy masalalar.** Konstruksiya ishlab chiqarish uchun o'ta mehnattalab bo'lmasa, texnologik sanaladi. Chizmachilik darsida buyum konstruksiyasini ishlab chiqishda ularni, masalan, mehnat darslarida maktab ustaxonasida oson tayyorlash mumkinligiga intilish lozim. Shu bilan birga, konstruksiyaning ayrim ikkinchi darajali sifatlari asosiyları foydasiga yomonlashishiga yo'l qo'yadigan murosaga tayyor bo'lishi lozim.

Masalaning umumiy mazmuni - formulirovksi (rasmiylashtirilishi) uni yechish retseptini (yo'llarini) bermasligi, ya'ni uning algoritmini avvaldan yoritib bermasligi kerak.

Grafikaviy sharti	Tayyor detallar	Grafik ishning strukturali sxemasi
 <b>3.34-rasm</b>	<i>Boltlar</i>  <i>Dastalar</i> 	


Ishning aniq maqsadini o'quvchilar ishning analitik (tahlil) bosqichi oxirida o'zлari mustaqil anglab yetishi lozim. Shunday, maktab o'quvchisining reysshinasini

(3.34-rasm, *a*), darsda albatta ko'rsatish talab etiladigan, professional bajaruvchi reysshinasi (3.34-rasm, *b*) bilan solishtirib, o'quvchilar uni bir-biriga parallel og'ma chiziqlar yordamida o'tkazish mumkinligini e'tirof etadi. Biroq ular og'ishning kerakli burchagini faqt qo'shimcha asbob, masalan, transportir yordamida aniqlash mumkinligini ham ko'radi. Aynan shu bu konstruksiyaning asosiy ziddiyati (qaramaqarshiligi) hisoblanadi. Izlanishning aniq maqsadini anglab yetishga yo'l ochadigan muammoli vaziyat yuzaga keladi. Bu burilish reysshinasi va transportir vazifalarini o'zida birlashtirgan konstruksiyani ishlab chiqish hisoblanadi.

Endi buni qanday amalga oshirishni o'ylab ko'rish kerak bo'ladi. Operativ (amaliyot) bosqichida izlanishning boshlang'ich bosqichlari chizmachilik qoidalariga muvofiq grafik aks ettirilishini nazorat qilish kerak. Buning uchun o'quvchilardan tayanch tasvirlarni bajarishda ular avval shakllantirilgan grafik bilimlardan foydalanishini talab qilish lozim. Izlanish jarayonida o'quvchilar eskizlar va texnik rasmlarni bajarishi, detallarni alohida va birikkan holda ko'rsatishi mumkin, bunda shaklning estetik ifodaliligiga va konstruksiyaga nisbatan qo'yiladigan boshqa talablarga rioya etilishiga erishishi talab qilinadi.

Bizning misolimizning o'ziga xosligi unda kombinatsiyalashtirilgan shakllarning bosh ko'rinishi va profil qirqimini M2:1 mashtabda tasvirlanganida. Grafik ishning strukturali sxemasini berilishi o'quvchilarning detal shakllarini va ularning o'zaro birikmasini ijodiy loyihalashlarini cheklab qo'ymaydi. Strukturali sxema masalaning javobini avvaldan aytib qo'yish bilan teng deguvchilar bilan also kelishib bo'lmaydi. Hozirgi kundagi maktablarimizda moslamalarni takomillashtirishga qaratilgan o'quv jarayoni mavjud emas. Bu sxema ularga yordam sifatida beriladi.

Strukturali sxema yonida tayyor detallarning ham chizmasi (boltlar va dastalar) beriladi. Har bir o'quvchi o'zining individual loyihasini yaratadi. Har bir o'quvchi bir necha variantda masala yechimini aniqlaydi va ulardan eng optimalini tanlaydi. O'quvchilar ishlab chiqqan loyihalalar ichidan ham bahs-munozara orqali eng maqbuli ajratiladi. 3.35-rasm *a* va *b* larda ushbu ijodiy masalaning javobi loyihalashtirilgan.




**2.1. Buyumni «konstruktisiyalashni oxiriga etkazish»  
(konstruksiyaning yetishmaydigan bo‘g‘inini to‘ldirish)**

**2.1.1. Uy sharoitida konservalaydigan moslama(asbob)ning yetishmovchi qismi  
konstruksiyasini to‘ldirish (oxiriga yetkazish).**

Moslama (asbob) metall qopqoqlarni buklash uchun mo‘ljallangan (3.36-rasm). Ish jarayonida ko‘rsatilgan yo‘nalishda *qo‘ziqorinsimon tayanch* bosib turiladi va *3 dasta* bilan *2 begunok* birqalikda aylantiriladi. Bir vaqtning o‘zida *3 dasta* bilan *valsovka qiluvchi qism* asta *2 begunokga* burab aylantiriladi.

**1-vazifa.** *Qo‘ziqorinsimon tayanchni loboyma* bilan *qo‘zg‘almas* birikmasi ishlab chiqilsin. *2 begunok* bilan *3 dasta* birqalikda vertikal o‘q bo‘yicha erkin harakatlanishi ta’milansin.

**2-vazifa.** *Qo‘ziqorinsimon tayanchning* boshqa detallar bilan birqalikdagi yig‘ish chizmasini fragmenti bajarilsin.




### **2.1.2. Chimqiqarning yetishmovchi qismi konstruksiyasini to'ldirish.**

Yerning yuza qismi maysalarning ildizlari bilan qoplanganligi uchun qirqish qiyin bo'ladi. Chimqirqar chimni kesish uchun mo'ljalangan. 3.37-rasmda chimni kesuvchi disk ko'rsatilgan.


**1-vazifa.** Diskning tutqichini konstruksiyasi ishlab chiqilsin.

**2-vazifa.** Konstruksiyaning asosiy detallarining chizmalari bajarilsin.

**3-vazifa.** Chimqirqarning yig'ish chizmasi bajarilsin.



### **2.1.3. Rolikning yetishmovchi qismi konstruksiyasini to'ldirish.**



**1-vazifa.** Stoykaning konstruksiyasi shunday loyihalansinki, undagi 1 rolikning berilgan 2 yog 'och asosga parallel bo'lgan o'q atrofida aylanishi ta'minlansin (3.38-rasm).

**2-vazifa.** Stoykaning chizmasi bajarilsin.

**3-vazifa.** Tavsiya qilingan kallagi yarim yumaloq murtakli bolt va shurup yordamida rolikning yig'ish chizmasi bajarilsin.

## 2.2. Buymni «qayta konstruksiyalash»

(prototip tahlili asosida konstruksiyani takomillashtirish)

### 2.2.1. Proporsional sirkulning konstruksiyasini nihoyasi yetkazish.


Ushbu asbob tasvirni proporsional ravishda kattalashtirish yoki kichiklashtirish vazifasini bajaradi (3.39-rasm). Ushbu konstruksiyada mashtab o'zgarishining uch varianti ko'rib chiqiladi.

**1-vazifa.** Ushbu konstruksiyaning asosiy yetishmovchi qismi aniqlansin va nomlansin.

**2-vazifa.** Ushbu konstruksiya shunday takomillashtirilsinki, undagi tasvirni o'zgartirish masshtabi soni chegaralanmagan bo'lsin.

**3-vazifa.** Uskunaning asosiy detallarining texnik rasmi va chizmasi bajarilsin.

**4-vazifa.** Proporsional sirkulning konstruksiyasini takomillashtirish tugallangandan so'ng, uning yig'ish chizmasi bajarilsin.



### 2.2.2. Belgilovchi (razmetochniy) sirkulning konstruksiyasini takomillashtirilgan variantini bajarish.


Izoh: razmetochniy sirkul – bevosita material (tunuka, kesish mo'ljalangan yupqa material) ustida aylana chizuvchi moslama.

Ko'rsatilgan razmetochniy sirkul doimiy radiusdagi katta aylanani chizishga xizmat qiladi (3.40-rasm).

**1-vazifa.** Berilgan konstruksiya o'rganib chiqilsin va uning yetishmovchi qismlari aniqlansin.

**2-vazifa.** Sirkul konstruksiyasi shunday takomillashtirilsinki, uning yordamida ixtiyoriy radiusdag'i aylanani chizish mumkin bo'lsin.

**3-vazifa.** Konstruksiyaning qayta loyihalangandan keyingi fragmentini chizmasi chizilsin.



### **2.3. Buyumni texnik talablar bo'yicha konstruksiyalash (predmetli-grafik tayanchlar bilan)**

#### **2.3.1. Kitob qo'yadigan moslamani konstruksiyalash.**

1-vazifa. Simdan yasalgan kitob qo'ygichning konstruksiyasi ishlab chiqilsin.

2-vazifa. Kitob qo'ygichning chizmasi bajarilsin.

3-vazifa. Kitob qo'ygichning texnik rasmi bajarilsin.


#### **2.3.2. Turum qirquvchi moslamani loyihalash.**

Duradgorlik ishlari dagi birikmalarni hosil qilishda turumlar qirqishga to'g'ri keladi. Bunday turumlarni hosil qilishda just arra ko'rinishidagi moslamadan foydalanish qulaydir (3.41-rasm). Arra polotno (tasma)lari orasidagi  $a$  masofa turumning kengligiga teng bo'lishi kerak. Polotnolarni orasiga kirib, uni mustahkam ushlab turuvchi tutashirgich turumning kerakli  $h$  balandligini ta'minlashi shart. Bog'ichning holati esa polotnoga shunday qotirilgan bo'lishi kerakki, u kerakli balandlikdagi tishlarni kesishni ta'minlasin.

**1-vazifa.** Kengligi  $a$  va balandligi  $h$  teng bo'lgan turum qirquvchi moslamaning loyihasi ishlab chiqilsin. Loyihani ishlab chiqishda tavsija qilingan tayyor detallardan foydalanilsin.

**2-vazifa.** Arra poletnolari orasidagi tutashtirgichning chizmasi bajarilsin.

**3-vazifa.** Turum qirquvchi moslamaning texnik rasmi va yig'ish chizmasi bajarilsin.



### 2.3.3. Tomorqalarga qo'yiladigan tablichka (tahtacha)larni loyihalash.

**1-vazifa.** Tomorqalarga qo'yiladigan tablichka (tahtacha) loyihalansin. Tablichka  $160 \times 100 \times 3$  mm li fanera bo'lagidan iborat bo'lib, uning oyoqchasini uzunligi 200 mm bo'lisin. Detallarni o'zaro biriktirish usulini mustaqil tanlash mumkin.

**2-vazifa.** Tablichkaning detallari chizmasi bajarilsin.

**3-vazifa.** Buyumning yig'ish chizmasi bajarilsin.


### 2.3.4. Kavsharlagich (наяльник) uchun taglik loyihalash.

**1-vazifa.** Kavsharlagichni qo'yishga mo'ljallangan taglik loyihalansin (3.42-rasm). Taglik qattiq oq tunuka (жестъ)dan yig'ish operatsiyasilardan foydalanmasdan,

ya'ni yaxlit bir bo'lakdan tayyorlansin. Taglikning taxminiy gabariti  $200 \times 60 \times 60\ mm$  qilib olinsin.

**2-vazifa.** Taglikning texnik rasmi bajarilsin.


**3-vazifa.** Buyumning yoyilmasining chizmasi bajarilsin.



**2.3.5. Kirish (tashqi) eshiklariga bo'rtma (hajmli) raqamlarni biritirish usulini ishlab chiqish.**

**1-vazifa.** Kirish eshiklari polotnosiga alyuminiy qotishmasidan tayyorlangan raqamlarni biritirish usuli ishlab chiqilsin (3.43-rasm).

**2-vazifa.** Taklif etilayotgan biriktirish usuli tushuntirilsin va uning chizmasi bajarilsin.





#### **4.1. Tarkibida dizayn elementlari mavjud bo'lgan ijodiy masalalar**

##### **4.1.1. Narsalar guruhining tashqi shaklini ulardan birining stilistik belgilariga qarab ishlab chiqish.**

**1-vazifa.** Kofe qaynatgichning shakli (qopoqli tova (skovorotka)) kastryulning berilgan shakliga o'xshatib ishlab chiqilsin (3.44-rasm).

**2-vazifa.** Ishlab chiqilgan buyumlarning chizmasi bajarilsin.

**3-vazifa.** Buyumlar ichidan ixtiyoriy bittasining korpusiga uning dastasini mahkamlash tizimi ishlab chiqilsin.

Grafikaviy shart	Grafikaviy shart
	
<b>3.44-rasm</b>	<b>3.45-rasm</b>

#### **4.1.2. Choynak tarkibidagi detallarning konstruksiyasini takomillashtirish.**

**1-vazifa.** Berilgan choynak korpusining shakliga mos keluvchi qopqoq (dasta, jo'mrak)ning tashqi ko'rinish shakli ishlab chiqilsin (3.45-rasm).

**2-vazifa.** Choynakning ishlab chiqilgan detallarining tuzilishi (shakllari) aniqlangandan so'ng, choynak tasviri rangli qog'ozdan applikatsiya texnikasi orqali bajarilsin.

**3-vazifa.** Qopqoqning dastaga biriktirish usulini ko'rsatish orqali chizmasi bajarilsin.

**4-vazifa.** Choynakning dastasini korpusga qotiradigan tizim ishlab chiqilsin va chizmasi bajarilsin.

## **II. 4-§. Mustahkamlash uchun nazariy savollar va testlar.**

### **4.1. Takrorlash uchun savollar.**

1. Vazifasiga ko‘ra bazalar qanday ko‘rinishlarga bo‘linadi?
2. O‘lchamlar qo‘yishda qanday talablar amalga oshiriladi?
3. O‘lcham qo‘yishda qanday kategoriyalar mavjud?
4. Buyum elementlarining vaziyatiga qarab qanday bazalar tanlanadi?
5. Buyumning zagotovka holatiga, tayyorlanayotganligiga yoki ta’mirlanayotganligiga qarab qanday bazalar tanlanadi?
6. Qo‘yim(dopusk) tusunchasiga nimalar kiradi? O‘tkazishga-chi?
7. Qanday hollarda chizmada chekli chetga og‘ish hamda umumiylar yozuv yoziladi?
8. Shaklning umumiylar chekli chetga og‘ishi nima?
9. Vint chizig‘i deb nimaga aytildi? Vint yo‘li deb-chi? Vint ipi deb-chi?
10. Ko‘p kirimli rezba nima? Rezba deb-chi? Quvurli rezba-chi?
11. Yirik qadamli metrik rezbalar qachon qo‘llaniladi? Mayda qadamli-si-chi? Quvurli rezba-chi?
12. Rezba elementlariga nimalar kiradi? Ularning vazifalari nimalardan iborat?
13. Rezbali biriktirish detallariga nimalar kiradi? Ular qanday aniqlikda tayyorlanadi?
14. Birikmaning sifatini yo‘qotmay detallarning ko‘p marta birikishini ta’minlashda qanday shtift afzal? Shtiftning birikmadagi vazifasi nimadan iborat?
15. Shlitsalar qanday markazlashtirilganda tashqi vtulkaning diametyri  $D$  va valning ichki diametri  $d$  bo‘yicha radial tirqish (zazor) hosil bo‘ladi?
16. Qanday profilli tishli shlitsali birikma boshqalarga nisbatan yuqori mustahkamligi, tayyorlashda ustun texnologiyaga ega bo‘lganligi bilan ajralib turadi?
17. To‘g‘ri yonli shlitsali birikma uchun yuqori mustahkamlik talab qilinadigan hollarda val va vtulka qanday markazlashtiriladi?
18. Sirtning g‘adir-budirligi deb nimaga aytildi? Profilning chetga og‘ishi deb-

chi?

19. G‘adir-budirlik profilning eng cho‘qqisi  $R_{max}$  nima deyiladi? O‘rtta arifmetik chetga og‘ishi  $R_a$ -chi? Profilining tayanch uzunligi  $n_p$ -chi?
20. Buyum deb nimaga aytildi? Detal deb-chi? Tarkibiy qismi deb-chi? Spetsifikatsiyasi deb-chi?
21. Konstrukturlik hujjatlariga nimalar kiradi? Detal chizmasiga-chi? Yig‘ish chizmasiga-chi?
22. Umumiyo ko‘rinish chizmasi qanday hujjat? Nazariy chizma-chi? Gabarit chizma-chi? O‘rnatish (montaj) chizmasi-chi?
23. Loyiha chizmasi qanday hujjat? Ishchi chizmasi-chi? Asl chizma-chi?
24. Konstrukturlik eskiz hujjatlari nima? Ular qanday tuziladi va qanday ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi?
25. Buyumning tarkibiy qismlari uchun alohida yig‘ish chizmasi chizilgan bo‘lsa, qirqimda bu tarkibiy qismlari qanday ko‘rinishda chiziladi?
26. Nima sababdan geodezik asboblar (nivelir, teodolit), suratga oluvchi kamera, fotoapparatlar shtativlari uchta oyoqqa, stol, stullar to‘rtta oyoqqa ega?
27. Nima sababdan suv qaynatadigan temir choynakning ostki qismi katta, chelak, choy damlanadigan choynakniki kichikroq?
28. Nima sababdan suvgan mo‘ljallangan shisha butulkaning og‘zi kichik, sutga mo‘ljallanganniki kattaroq?
29. Nima sababdan oshxona idish-tovoqlari va choynakning ostki qismi tekis bo‘lmay doiraviy chizig‘i bor?
30. Nima sababdan kavsharlash asbobiga qizil misdan kavsharovchi o‘rnatilgan?
31. Nima sababdan vodoprovod tarmog‘iga ventil, gaz tarmog‘iga kran (jomrak) o‘rnatiladi?
32. Nima sababdan ikkita vintsimon silindrik prujinalarni bir-biriga kiritib yig‘ishda ulardan bittasini chap yo‘lli qilib olinadi?
33. Nima sababdan divanlarda qo‘llaniladigan prujinalarni silindriklari emas

konussimonliklari tanlanadi?

34. Nima sababdan gaykalarda faskalar bajariladi? Yod'och konstruksiyalarda kvadrat, temir konstruksiyalarda olti qirrali gaykalar qo'llaniladi?
35. Shpilkaning uchlaridagi rezbalarni har xil, ya'ni chap yo'lli va o'ng yo'lli qilib olish mumkunmi?
36. Quvurlarni mufta yordamida biriktirishda uning bir tomoniga nima uchun kontrgayka qo'llaniladi?
37. Nima sababdan gorizontal joylashgan pichoqqa nisbatan qiya vaziyatdagisi yahshiroq kesadi?
38. Nima sababdab temiryo'l (paravoz) g'ildiragiga katta bo'lмаган konuslik beriladi? Nima uchun g'ildirakdagi o'srma (rebord) ichki tomoniga joylashtirilgan?
39. Nima uchun chegara, temir yo'l shlagbaumlari, yo'l chetidagi stolbalar oq va qora yo'l-yo'l qilib bo'yaladi?
40. Quyma detallarni taylorlashda qanday jarayonlar mavjud?
41. Dettallarga mexanik ishlov berishda qanday asboblardan foydalaniadi? Ular qanday ishlataladi?
42. Konstruksiyalashning umumiy prinsiplari nimalardan iborat?
43. Quyma detallarni konstruksiyalashning prinsiplari nimalardan iborat?
44. Mashina detallarining texnologiyalikligi. Detallarni o'zaro birlashishidagi texnologikligi nimalardan iborat?
45. Konstrukturlik (loyihalash) faoliyatda turli usullarni yoritib bering.
46. Inversiya haqida to'liq ma'lumot bering.
47. Loyihalash bosqichlari va ularning asosiy hususiyatlari nimalardan iborat?
48. Yangiliklarni loyihalashdagi turli fikr va mulohozalar.
49. Detallarni loyihalashda qanday texnologik ko'rsatmalar mavjud?
50. Zamonaliviy dizayn talablari nimalardan iborat?

**4.2. Bilimni tekshirish va mustahkamlash uchun testlar.**

**1. Texnologik baza nima?**

- A. Buyumni tayyorlash yoki ta'mirlash jarayonida uning holatini aniqlashda foydalilanildi.
- B. Zagotovka va o'lhash vositasining nisbat holatini aniqlash .
- C. Buyumda detal holatini aniqlash.
- D. Buyumning bazasini tanlash.

**2. Konstrukorlik baza nima?**

- A. Tamirlash jarayonidagi zagotovkaning holatini aniqlash.
- B. Zagotovka va o'ichav vositasining nisbiy holatini aniqlash.
- C. Buyumda detal va uning elementlarining holatini aniqlash.
- D. O'lchamlar qo'yishda yondosh detallar hisobga olinishi.

**3. Qanday o'lchamlar ma'lumot (spravka) o'lchamiga kiradi?**

- A. Gabarit o'lchami.
- B. Montaj (yigish) o'lchami.
- C. Yopiq o'lchamlar zanjirlaridan bittasi.
- D. Detal zvenosi o'lchami.

**4. Chizmada o'lchamlar bitta chiziqda ketma-ket qo'yilsa, bu qanday o'lcham qo'yish usuli hisoblanadi?**

- A. Zanjir.
- B. Koordinata.
- C. Aralash.
- D. Gabarit.

**5. Chizmada barcha o'lchamlar bitta bazadan qo'yilsa, qanday o'lcham qo'yish usuli hisoblanadi?**

- A. Zanjir.
- B. Koordinata.
- C. Aralash.

D. Konstrukturlik.

**6. Chizmaga o'chamlar qo'yishda zanjirli va koordinata usullaridan foydalanilgan usul qanday ataladi?**

A. Zanjir.

B. Koordinata.

C. Aralash.

D. Texnologik.

**7. Quyma, bolg'alangan, shtampovka, cho'zish orqali hosil qilingan detallar chizmalarida o'chamlar qanday bazadan qo'yiladi?**

A. Konstrukturlik.

B. Texnologik.

C. Ixtiyoriy.

D. Aralash.

**8. Ishlov berish yo'li bilan hosil qilingan detallarga chizmada qanday bazalardan o'chamlar qo'yiladi?**

A. Konstrukturlik.

B. Texnologik.

C. Ixtiyoriy.

D. Erkin.

**9. O'tqazish deb nimaga aytildi?**

A. Buyumga qo'yilgan texnik talablarni ta'minlash.

B. Talab qilingan o'tqazishni ta'minlash.

C. Buyumda detal holatini aniqlash.

D. Detallarning biriktirish xarakterlarida tirqish yoki taranglikning mavjudligini aniqlash.

**10. O'tqazishda qanday tizim mavjud?**

A. Eng katta va kichik o'chamlar o'rtasidagi farq.

B. Buyumda detal holatini aniqlash.

- C. Teshik tizimi va val tizimi.
- D. Talab qilingan o'tqazish ko'rinishini ta'minlash .

**11. Qanday o'tqazishga misol keltirilgan?**

$\frac{H7}{f7}$

- A. Tirqish bilan.
- B. Taranglik bilan.
- C. O'tuvchi.
- D. Buyumga qo'yilgan texnik talablar.

**12. Shaklning chetga og'ishi va qo'yimi deb nimaga aytildi.**

- A. Real sirt yoki real profil shaklidan chetga o'g'ish.
- B. Tirqish bilan o'tqazishga.
- C. Taranglik bilan o'tqazishga.
- D. O'tuvchi o'tqazishga.

**13. Teshik tizimidagi taranglik bilan o'tqazish aniqlansin?**

- A. e7/h6
- B. K7/h6
- C. H7/p6
- D. H7/h6

**14. Vint yo'li deb nimaga aytildi?**

- A. Silindrik sirtda tekis konturning vintsimon harakati.
- B. Nuqtaning silindr yasovchilari bo'yicha bir marta aylanishda o'tgan masofasi.
- C. Keskich bir martda aylanib sterjenni qirqqanda hosil bo'lgan vintli chiziq.
- D. Sterjen sirtining bitta uchastkasida qirqilgan bir nechta vintli iplar.

**15. Vint ipi deb nimaga aytildi?**

- A. Silindrning yasovchilari boyicha bir hil ilgarilama va aylanma harakat qilishda nuqta hosil qilgan fazoviy egri chiziq.
- B. Nuqtaning silindr yasovchilari bo'yicha bir marta aylanishida o'tgan masofasi.
- C. Keskich bir marta aylanib sterjenni qirqqanda hosil bo'lgan vintli chiziq.

D. Sterjen sirtining bitta uchastkasida qirqilgan bir nechta vintli iplar.

**16. Mayda qadamli metrik rezbalar qachon qo'llaniladi?**

A. Mustahkamlik darajasi shartiga ko'ra.

B. Gaykaning o'z-o'zidan buralib ketishga qarshi joylarda.

C. Asosan yupqa devorli detallarda.

D. Quvurli birikmalarda.

**17. Quvurli birikmalarda qanday detal birikturuvchi hisoblanadi?**

A. Gayka.

B. Bolt.

C. Mufta:

D. Kalta quvur.

**18. Rezbaning sbegi nima?**

A. Rezbaning qadami.

B. Rezbaning chiqishi.

C. Rezbaning yo'li.

D. Rezbaning faskasi.

**19. Rezbaning protochkasi nima?**

A. Rezbaning faskasi.

B. Rezbaning kirimi.

C. Sbeg o'miga ishlangan halqasimon joy.

D. Rezbaning chiqishi.

**20. Rezbaga faska nima uchun bajariladi?**

A. Rezba profili to'liq bo'limgan hollarda.

B. Sbeg o'miga ishlanadi.

C. Rezbaning chiqishini onsonlashirish uchun.

D. Teshikdag'i rezbaning oxirgi o'rmlarini shikastlanishdan saqlash uchun.

**21. Shtiftning birikmadagi vazifasi nimadan iborat?**

A. Detallarni bir-biriga markazlashtirish.

- B. Detallarning aylanma harakatini ta'minlash.
- C. Detallarni ajratish onson bo'lishligini ta'milash.
- D. Detallarning o'zaro surilishini ta'minlash.

**22. Tishlarining profili uchburchak bo'lgan shlitsali birikmalar qanday hollarda qo'llaniladi?**

- A. Katta kuchga ega bo'linganda.
- B. O'ta yuqori kuchga ega bo'linganda.
- C. Sekin aylanma harakat davrida.
- D. Uncha katta kuchga ega bo'linmaganda.

**23. Katta aylanma harakatlarni uzatish va yuqori mustahkamlikni hamda yaxshi markazlashni ta'minlaydigan birikmaga qanday birikma kiradi?**

- A. Shponkali.
- B. Tishli.
- C. Shlitsali.
- D. Rezbali.

**24. Shlitsali birikmalrning shartli tasvirlida tirqish (zazor)lar qanday tasvirlanadi?**

- A. Ko'rsatiladi.
- B. Qisman ko'rsatiladi.
- C. Qisman ko'rsatilmaydi.
- D. Ko'rsatilmaydi.

**25. Yuzalarning g'adir-budirliklarida profilning chetga og'ishi deb nimaga aytildi?**

- A. Sirtning notejisliklar yig'indisi.
- B. Profil o'smasi chizig'i va profil tubi chizig'i orasidagi masofa.
- C. Profilning istalgan nuqtasi va o'rta chizig'i orasidagi masofa.
- D. Baza uzunligi orasidagi profilning chekli chetga og'ishi.

**26. Yuzalarning o'rta arifmetik chetga og'ishi  $R_a$  nima deyiladi?**

- A. Sirtning notejisliklari yig'indisi.
- B. Profilning istalgan nuqtasi va o'rta chizig'i orasidagi masofa.
- C. Baza uzunligi orasidagi profilning chekli chetga og'ishi.
- D. Baza uzunligi orasidagi kesmalar uzunligi yig'indisi.

**27. Yuzalarning g'adir-budirliklari profilning tayanch uzunligi n<sub>a</sub> nima deyiladi?**

- A. Profilning istalgan nuqtasi va o'rta chizig'i orasidagi masofa.
- B. Baza uzunligi orasidagi kesmalar uzunligi yig'indisi.
- C. Sirtning notejisliklari yig'indisi.
- D. Baza uzunligi orasidagi profilning chekli chetga og'ishi.

**28. Detal deb nimaga aytildi?**

- A. Buyumning geometrik shaklini aniqlash.
- B. Buyumning konturini tasvirlashni o'z ichiga olish.
- C. Bir xil nomli va bir xil materialdan yig'masdan tayyorlangan bir markali buyum.
- D. Tarkibiy qismlari yig'ish vositasida birkiritilgan buyum .

**29. Buyumning tarkibiy qismi deb nimaga aytindi?**

- A. Ishlab chiqarilgan yoki narsalar to'plami.
- B. Detal, yig'ish birligi, kompleks va komplekt.
- C. Yig'ish birikmalarining tarkibini aniqlovchi hujjat.
- D. Byumning geometrik shaklini aniqlash.

**30. Buyumning spetsifikatsiyasi deb nimaga aytildi?**

- A. Ishlab chiqarilgan narsa yoki narsalar to'plami.
- B. Buyumning geometrik shaklini aniqlash.
- C. Yig'ish birikmalarining tarkibini aniqlovchi hujjat.
- D. Tarkibiy qismlari yig'ish vositasida birkiritilgan buyum.

**31. Nazariy chizma qanday hujjat?**

- A. Detalning tasviri, uni tayyorlash va nazorat qilishdeki ma'lumotlarni o'z ichiga

olgan hujjat.

- B. Buyum konstruksiyasi asosiy tarkibiy qismlarining o'zaro bog'lanishi.
- C. Buyumning geometrik shakli va tarkibiy qismlarini aniqlovchi hujjat.
- D. Buyumning soddalashtirilgan kontur tasviri va uni gabarit, o'rnatish, biriktirish haqidagi hujjat.

**32. Ishchi hujjatlarga nimalar kiradi?**

- A. Texnikaviy takliflar, eskizlar, loyihalar haqidagi hujjat.
- B. Buyumlar va ularning tarkibiy qismlarini ishlab chiqarish, nazorat qilish va ta'mirlash uchun zarur hujjatlar.
- C. Buyumning geometrik shakli va tarkibiy qismlarini aniqlovchi hujjat.
- D. Buyumning soddalashtirilgan kontur tasviri va uni gabarit, o'rnatish, biriktirish haqida hujjat.

**33. Eskizlar qanday sharoitda qo'llaniladi?**

- A. Buyumning soddalashtirilgan tasvirini chizishda.
- B. Buyumlarni va detallarni loyihalashda.
- C. Standartlashtirilgan va sotib olinadigan detallarni chizishda.
- D. Asl nusxalar tayyorlashda.

**34. Buyumlarning tarkibiy qismlari uchun alohida yig'ish chizmasi chizilgan bo'lsa, qirqimda bu tarkibiy qismlar qanday tasvirlanadi?**

- A. To'liq qirqilgandek.
- B. Qisman mahalliy qirqimda.
- C. Qirqilmagan ko'rinishda.
- D. Ular umuman tasvirlanmaydi.

**35. Yig'ish chizmasidagi detallarning geometriyasini aniqlash qanday amalga oshiriladi?**

- A. Yig'ish chizmasi orqali.
- B. Detallarning vaziyat (pozitsiya) raqamlari orqali.
- C. Qirqimda ularning (detallarning) shtixlanishlari orqali.

D. Yig'ish chizmasini detallarga ajratib chizish orqali.

**36. Konstruktiv elementlari ichki va tashqi halqlar orasida joylashgan geometrik jismalarni ajratib turuvchi separatorlardan iborat podshibnik qanday nomlanadi?**

A. Tebranuvchi.

B. Yumalash.

C. Radial.

D. Sirpanish.

**37. Yumalash podshibnikda qanday geometrik sirtlar qo'llaniladi?**

A. Silindrik.

B. Tor (halqa).

C. Sfera (sharik).

D. Ellipsoid.

**38. Biri qopqoq ikkinchisi korpus deb nomlanadigan vtulka ko'rinishidagi podshibnik qanday ataladi?**

A. Tebranuvchi.

B. Yumalash.

C. Radial.

D. Sirpanish.

**39. Mashina yoki mexanizmning nagruzka (yuk) ta'sirida elastik deformatsiyasini (shakl o'zgarish) vaqtincha to'plashga xizmat qiladigan detal nima deyiladi?**

A. Xrapovnik.

B. Vtulka.

C. Prujina.

D. Vint.

**40. Asoslarida o'ramlarining bir qismi o'qiga perpendikular chiqib turadigan vintsimon prujinalar qanday nomlanadi?**

A. Siqilish.

B. Buralish.

C. Cho'zilish.

D. Spiralsimon.

**41. Valga o'rnatiladigan tishli g'ildirak, shkiv kabilar aylanma harakatni qanday detal yordamida amalga oshiriladi?**

A. Bolt.

B. Shponka.

C. Shtift.

D. Shpilint.

**42. Qanday shponkalarda 1:100 qiyalik mavjud?**

A. Segment.

B. Yo'lantiruvchi.

C. Ponasimon.

D. Konussumon.

**43. Talab qilingan sirtni hosil qilish uchun yuzaga ishlov berish turi yagona bo'lsa, bu ishlov turi chizmada qanday ko'rsatiladi?**

A. Zarur hollarda qo'yiladi.

B. Profilning nisbiy tayanchida.

C. Real yuza profili kesimida.

D. G'adir-budurlik belgisida.

**44. Buyum va uning tarkibiy qismlarining o'zaro bog'lanishi to'g'risida tasavvur etish imkonini beruvchi tasvir nima deyiladi?**

A. Yig'ish chizmasi.

B. Detalning eskizlari.

C. Detalning ishchi chizmalri.

D. Umumiy ko'rinish chizmalari.

**45. Buyumning konstruktiv tuzulishi, asosiy qismlarining o'zaro bog'lanishi**

**va ishlash jarayoni haqida tushuntirish matni va buyumning tarkibi to‘g‘risida ma‘lumotlar beriladigan chizma nima deyiladi?**

- A. Gabarit chizrnalar.
- B. Montaj chizmlari.
- C. Umumiyo ko‘rinish chizmalari.
- D. Spetsifikatsiya.

**46. Ishchi chizmalarda qanday ko‘rsatmalar berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi?**

- A. Buyumning soddalashtirilgan chizmasini chizishga.
- B. Texnologik ko‘rsatmalarga.
- C. Asl nusxalarni ko‘chirishga.
- D. Buyum va detallarning loyihalarini chizishga.

**47. Yig‘ish chizmalari qanday bo‘lishi lozim?**

A. Tasvirlar soni kam, lekin buyumni tayyorlash, yig‘ish va nazorat qilish uchun yetarli ma‘lumotlar berilishi lozim.

B. Buyumlar va ularning tarkibiy qismlarini ishlab chiqarish va nazorat qilish hamda ta’mirlashga oid ma‘lumotlar berilishi lozim.

C. Buyum konstruksiyasi asosiy tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘lanishi, buyumning ishlatalishi haqida ma‘lumotlar berilishi lozim.

D. Buyumning soddalashtirilgan kontur tasviri va uni gabarit, o‘rnatish, biriktirish va ishlatish haqida ma‘lumotlar berilishi lozim.

**48. Nima sababdan detal zagotovkasi (chala mahsulot) ingichka tutash chiziqda, undagi bir qismi asosiy yo‘g‘on tutash chiziqda tasvirlanadi?**

A. Detalning asosiy tutash yo‘g‘on chiziqda tasvirlangan qismiga ishlov berish uchun.

B. Bunday detallarni loyihalash uchun.

C. Detalning asosiy yo‘g‘on tutash chiziqda tasvirlangan qismini qirqib tashlash uchun.

D. Bunday detallarni qayta tayyorlash uchun.

**49. Bir detalning elementi sirtiga boshqa detalning sirtiga nisbatan ishlov berilishi lozim bo'lsa, o'sha boshqa detal qanday chiziq bilan tasvirlanadi?**

- A. Ingichka ikki nuqtali shtix-punktir chiziq bilan.
- B. Ingichka tutash chiziq bilan.
- C. Ingichka shtrix-punktir chiziq bilan.
- D. Shtrix chiziq bilan.

**50. Shakli va o'lchamlari (uzunligi, egish radiusi kabilar) o'rnatilgan joyda aniqlanadigan buyum detallari uchun ishchi chizmalari chiziladimi?**

- A. Agar detal simmetrik bo'lsa chizilmaydi.
- B. Bunday hollarda ishchi chizmasini chizish shart emas.
- C. Detal konstruksiyasi juda sodda bo'lsa chizilmaydi.
- D. Detal konstruksiyasi murakkab bo'lsa chiziladi.

#### **Test savollarining to'g'ri javoblari**

N <sub>o</sub>	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
To'g'ri javob	A	C	C	A	B	C	B	A	D	C	A	A	A	B	C	B	C
N <sub>o</sub>	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34
To'g'ri javob	B	C	D	C	D	C	D	C	C	C	C	C	C	C	B	B	C
N <sub>o</sub>	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45	46	47	48	49	50	
To'g'ri javob	D	B	A	D	C	B	B	C	D	A	C	B	A	A	B	B	

## II. 5-§. Loyihalash darslarida

### “Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi”ning amaliy tatbig‘i

Chizmachilik fanini o‘rganishning pirovard natijasi o‘quvchilarda grafik savodxonlik, ijodkorlik, konstrukturlik, estetik didilik kabi jihatlarning o‘zaro uyg‘unlikda skallanishiga erishishdir. Insonda bu jihatlarning bo‘lishi, uning zamonaviy salohiyat va madaniyatga ega bo‘lishiga katta xizmat qiladi.

O‘quvchi loyihalash (konstruksiyalash) prinsiplarini bilishi, mustaqil ravishda biror buyumning loyiha chizmasini yarata olishi uchun undan kuchli fazoviy tasavvur talab etiladi. Demak, chizmachilik fani o‘quvchilarning fazoviy tasavvuri va tafakkurini rivojlantirishga katta xizmat qiladi. Shu maqsadda umumiyo‘rtalim maktablaridagi chizmachilik fani darsligiga loyihalashga oid mavzu va topshiriqlar kiritilgan. Loyihalash (konstruksiyalash) prinsiplari mavzusiga oid darslarni hozirgi kunda katta e’tibor qaratilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish samarali bo‘ladi.

Ushbu materialda “*Tarkibida loyihalash elementlari bo‘lgan ijodiy grafik masalalar*” mavzusini “*Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi*” yordamida tashkil etish ko‘rsatib o‘tilgan. Bu hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining bir metodi hisoblanadi.

Bu metod professor Sh.Sharon tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda ko‘proq o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e’tibor qaratilgan.

O‘quvchilar alohida-alohida yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib borishadi. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o‘rganish lozim bo‘lgan o‘quv materiali kichik qismilarga ajratiladi. Keyin bu qismilar yuzasidan topshiriqlar har bir o‘quvchiga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir o‘quvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga o‘z hissasini qo‘sadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o‘tkaziladi. Guruh a’zolari birqalikda ma’ruza tayyorlaydi va sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘z ijodiy izlanishlari natijasini e’lon qiladi. Kichik guruhlar o‘rtasida


o'tkaziladigan o'quv bahsi, munozara o'quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni hisoblanadi.

Hamkorlikda ishlash natijasida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasidagi har bir o'quvchining muntzam va faol aqliy mehnat qilishga, kichik guruhlarni umuman, sinf jamoasini jipslashtirishga, avval o'zlashtirilagan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi va kutilmagan vaziyatlarda qo'llanilib, yangi bilimlarning o'zlashtirilishiga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilar alohida-alohida (individual) yoki kichik 6 nafargacha kishilik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar.


Quyida ushbu metod uchun tavsiya beradigan o'quv materiali taklif etiladi. Kihcik guruhlar soniga qarab o'quv topshiriqlari tuziladi.

1. Modelning geometriyasini qisman o'zgartirish (masalan, 5.1-rasm).



5.1-rasm

2. Modelning fazoviy holatini o'zgartirish (masalan, 5.2-rasm).




a)

5.1-rasm


b)

3. Modelning shaklini razmetka chizig'i bo'yicha o'zgartirish (masalan, 5.3-rasm).



5.3-rasm

4. Modelning shakli uchta teshikdan tirqish (zazor)siz o'tadigan qilib loyihalansin (masalan, 5.4-rasm).




5.4-rasm

5. Modelning chiqiq qismi uning asosi hisobiga huddi o'shanday o'lcham va shakldagi chuqurchaga almashtirish (masalan, 5.5-rasm).

Topshiriqlarning didaktik maqsadi: xalq xo'jaligining turli sohalarida yangi buyumlar ixtiro qilish yoki amaldagilarni takomillashtirish yoki qayta ishlab chiqarishni loyihalashga o'rgatish.

Yuqorida keltirilgan rasmlarda

topshiriqnинг yechimlari berilgan. Biroq topshiriq javoblari o'quvchilarga e'lon qilinmaydi. Ya'ni ular topshiriq yechimmini o'zлari mustaqil ravishda aniqlashlari lozim.



5.5-rasm

*“Tarkibida loyihalash elementlari bo‘lgan ijodiy grafik masalalar” mavzusi yuzasidan 1-guruh topshirig‘ining mavzusi: modeling geometriyasini qisman o‘zgartirish.*

<b>Nº</b>	<b>O‘quvchilar o‘zlashtirilishi lozim bo‘ladigan o‘quv materiallari</b>	<b>Topshiriqni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar</b>
<i>Quyidagi savollarga javob tayyorlang.</i>		
1.	Loyihalashga nimalar kiradi.	
2.	Ko‘rinishlari orqali berilgan vazni (og‘irligi) va shakli dizayn talabida qayta loyihalansin.	Barcha savollar bo‘yicha fikringizni grafik usulda isbotlashga harakat qiling.
3.	Topshiriq chizma ko‘rinishida bajarilsin.	

*Eslatma:* guruhdagi har bir o‘quvchi o‘zining didiga qarab bajaradi.

2 – guruh topshiriqning mavzusi: *modelning fazoviy holatini o‘zgartirish.*

<b>Nº</b>	<b>O‘quvchilar o‘zlashtirilishi lozim bo‘lagan o‘quv materiallari</b>	<b>Topshiriqni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar</b>
<i>Quyidagi savollarga javob tayyorlang.</i>		
1.	Loyihalashga nimalar kiradi.	
2.	Ko‘rinishlari orqali berilgan modelning yo‘nalishda 90° ga burligandagi vaziyati bajarilsin.	Barcha savollar bo‘yicha fikringizni grafik usulda isbotlashga harakat qiling.
3.	Topshiriq chizma ko‘rinishida bajarilsin.	

*Eslatma:* Guruhdagi har bir o‘quvchi o‘zining qobiliyatiga qarab bajaradi. Eng yaxshi bajarilgan variant tanlanadi va u o‘quvchi rag‘batlantiriladi.

3 – guruh topshiriqning mavzusi: *modelning shakli razmetka chiziq bo‘yicha o‘zgartirilsin.*

<b>Nº</b>	<b>O‘quvchilar o‘zlashtirilishi lozim bo‘ladigan o‘quv materiallari</b>	<b>Topshiriqni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar</b>
<i>Quyidagi savollarga javob tayyorlang.</i>		
1.	Loyihalashga nimalar kiradi.	
2.	Modelning zagatovkasi sirtiga razmetka chiziq‘i tortilgan. Razmetka bo‘yicha ortiqcha joylari qirqib olingan model ko‘rinishlari chizilsin.	Barcha savollar bo‘yicha fikringizni grafik usulda isbotlashga harakat qiling.
3.	O‘quvchi o‘z hoxishiga ko‘ra ushbu zagatovkadan boshqacharoq model loyihalashi mumkin.	

*Eslatma:* Eng yaxshi dizayn talabida loyihalangan model tanlab olinadi va u rag‘batlantiriladi.

4 – guruh topshiriqning mavzusi: *kubning shakli uchta teshikdan tirqish (zazor)siz o'tadigan model loyihalansin.*

Nº	O'quvchilar o'zlashtirilishi lozim bo'lagan o'quv materiallari	Topshiriqni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar
<i>Quyidagi savollarga javob tayyorlang.</i>		O'quvchilar guruhi bilan hamkorlikda ishlash
1.	Loyihalashga nimalar kiradi.	
2.	Berilgan kub tasvirlangan uchta ( $V, H, W$ ) teshiklardan tirqishsiz silliq qilib o'tadigan darajada loyihalansin.	Barcha savollar bo'yicha fikringizni grafik usulda isbotlashga harakat qiling.
3.	Topshiriq chizma ko'rinishida bajarilsin. Eng yaxshi bajarilgan variant egasi taqdirlanadi.	

5 – guruh topshiriqning mavzusi: *Modeldag'i chiqiq qismi asosi hisobiga chuqurchaga almashtirilsin.*

Nº	O'quvchilar o'zlashtirilishi lozim bo'lagan o'quv materiallari	Topshiriqni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar
<i>Quyidagi savollarga javob tayyorlang.</i>		O'quvchilar guruhi bilan hamkorlikda ishlash
1.	Loyihalashga nimalar kiradi.	
2.	Modeldag'i chiqiq uning asosi qalinligi hisobiga chuqurchaga almashtirilsin. Chuqurcha xuddi chiqiqning o'chami va shakliga mos kelsin.	Barcha savollar bo'yicha fikringizni grafik usulda isbotlashga harakat qiling.
3.	Topshiriq chizma ko'rinishida bajarilsin.	

*Eslatma:* o'quvchi o'z hoxishiga qarab chiqiq shakli va o'mini almashtirishi mumkin. Modeldag'i chuqurchanasi fazo hisobiga chiqiqqa almashtirishi mumkin. Eng yaxshi bajarilgan loyiha g'olib hisoblanadi.

Dars oxirida guruhlarda bajarilgan topshiriqlar umumlashtiriladi va qaysi guruhda rag'batlantirilgan o'quvchilar soni ko'p bo'lsa o'sha guruh g'olib deb topiladi, hamda taqdirlanadi.

Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarning bilim saviyasini quyidagi test savollari yordamida aniqlashi mumkin.

*I. Loyihalash deganda nima tushuniladi.*

- A. Xalq xo'haligining turli sohalarida yangi buyumlar yaratishga.
- B. Yaratilgan yangi buyumni tahlil qilishga.
- C. Yaratilgan yangi buyumni detallarga ajratishga.
- D. Eski buyumni ta'mirlashga.

2. *Loyihalashga doir ishlar har doim nimalar bilan bog'liq?*  
A. Grafik (chizmalar, eskizlar, texnik rasmlar) tasvirlar bilan.  
B. Turli ko'rinishdagi moslamalar bilan.  
C. Har xil asboblar bilan.  
D. Turli ko'rinishdagi plakatlar bilan.
3. *Loyihalashda ijodiy yondashish nimadan iborat?*  
A. Buyumning konstruktiv elementlariga foydali yangilik kiritish.  
B. Buyumni tarkibiy qismlarga ajratish.  
C. Buyumning ba'zi detallarini ta'mirlash.  
D. Buyum detallarining eskizlarini chizishga.
4. *Tayyor buyum (detal)ning ko'rinishi o'ziga jalb qilinadigan holda chiroyli qilib o'zgartirilishiga nimalar kiradi?*  
A. Detal vaznnini kamaytirish.  
B. Detalni dizayn talabida o'zgartirish.  
C. Detal geometriyasiga qisman o'zgartirish kiritish.  
D. Detalni ta'mirlash.
5. *Detalning vaziyatini ma'lum yo'nalishda o'zgartirishga nima deyiladi?*  
A. Detalni tahlil qilish.  
B. Detalning fazoviy holatini o'zgartirish.  
C. Detalning eskizini tayyorlash.  
D. Detalni qayta ta'mirlash.
6. *Detalga kiritilgan o'zgartirish chizma orqali bajarilsa, bu jarayon nima deyiladi?*  
A. Detalning fazoviy vaziyatini o'zgartirish.  
B. Detalning geometriyasini o'zgartirish.  
C. Chizmani qayta ijodiy loyihalash.  
D. Detalni qayta ta'mirlash.

Test tuzish shu tartibda davom ettiriladi.

Yuqorida tavsiya etilgan dars ishlansasi loyihasini yanada takomillashtirish mumkin. Har bir guruhchadagi komandalarning ma'ruzalari asosida butun sinf o'quvchilarini qisqa muddatda dastlabki loyihalash prinsiplarini o'zlashtiradi. Komandadagi har bir o'quvchi o'z taklifini og'zaki, chizma yoki yozma tarzda bildiradi. Natjada o'quvchida mustaqil fikrash, fazoviy tasavvur va grafik savodxonlik uyg'unlikda rivojlanadi. Umumiyligi o'rta ta'lim maktabalarining chizmachilik fani darslarini hamkorlikda o'qitish texnologiyasining turli metodlari yordamida tashkil qilish o'zining ijobjiy samarasini beradi.

## **II. 6-§. Evristik o'qitish texnologiyasi va uning chizmachilikni ijodiy masalalarini o'qitishdagi amaliy ahamiyatini**

Barchamizga ma'lumki, chizmachilik fani o'quvchi va talabalarning fazoviy tasavvurini o'stirishga katta xizmat qiladi. Agar ta'lim texnologiyalaridan biri bo'lgan evristik o'qitish texnologiyasidan loyihalash darslarida unumli foydalanssa, an'anaviy darsga nisbatan ijobjiy natijaga erishiladi.

Ushbu paragrafda chizmachilik darslarini evristik o'qitish texnologiyasi asosida tashkil etish orqali o'quvchi va talabalarda ijodiy fikrlash va turli gipotezalarni yarata olishini shakllanishi, buning natijasida ularning fazoviy tasavvuri va tafakkurini rivojlanishiga oid masalalar yoritladi.

Innovatsion texnologiyalar orasidagi evristik o'qitishning texnologik shakli deyarli Suqrotning savol va fikr yuritish metodiga suyangan. Ma'lumki, Suqrot o'zining shogirdlariga avval, umumiyo yo'naltiruvchi savol bergen va javobini olgach, aniqlashtiruvchi savol bergen va haqiqatni aniqlamaguncha, unga juda yaqin savollar beravergan.

Evristik o'qitishda yagona ta'lim natijasini aytib bo'lmaydi. Chunki har bir o'quvchidan turli javoblarni olish mumkin. Evristik o'qitishda o'quvchi oldingi olgan bilimini o'zlashtiradi, keyin uni ijodiy o'zlashtirish orqali o'zining loyihasida qo'llaydi.

Evristik o'qitishning asosiy mohiyati doimo yangilikni ochishga harakat qilish demakdir. Evristik yunoncha *heuriska* – qidiraman, topaman, ochaman degan ma'nolarni anglatadi.

Evristik o'qitishning prinsiplari ma'lum pedagogik sharoitga moslashtirib o'qitish bo'lib, unda o'qituvchi va o'quvchini oldindan natijasi ma'lum bo'lmagan muommoni yechishga undaydi. Evristik o'qitish nafaqat o'quvchilarni balki o'qituvchilarni ham rivojlanishga chorlaydi, chunki o'qituvchilarga o'quv jarayonida haqiqatni "bilmaslik" vaziyatini tashkil qilishga to'g'ri keladi.

O'quvchi o'zining mashg'ulotlari rejasini tuzadi, o'zining shaxsiy qarashlarini asosiy masalaga qaratadi. Masalan, detalga o'lchamlarini qo'yishda uning shaklini,

geometrik obrazlarni, uni tayyorlash jarayonlarini o'rganishga harakat qiladi. Detalga ishlov berishdagi jarayon haqida o'zining shaxsiy fikrini, detalning geometriyasi, uni yaxshilash haqidagi izlanishlar, texnik va texnologik konstruksiyalash, dizayn kabilalar ustida bosh qotiradi. Natijada o'quvchilar o'zlari o'rganayotgan soha haqida shaxsiy individual rejalarini tuzishadi.

Evristik o'qitishni ba'zida ijodiy faoliyat bilan bog'lashadi. Lekin uning asosiy uchta yo'nalishi mavjud:

1. Evristik faoliyat o'zida ijodiy ta'limiylar yetishtirish jarayonlarini qamrab oladi.
2. Evristik faoliyatni tashkil qiluvchi bilish jarayonlari ijod qilishdagi eng zaruriy jarayon hisoblanadi.
3. Evristik faoliyatda tashkiliy, metodologik, psixologik va boshqa jarayonlar ijodiy va bilish faoliyatini ta'minlaydi.

Evristik o'qitishda uning asosiy maqsadi o'quvchining o'z-o'zini ijodiy ta'minlash hisoblanadi. Bu jarayon quyidagicha amalga oshiriladi.

*O'quvchi loyihalash uchun vazifa oladi.* Ammo unga vazifa haqida tayyor bilim berilmaydi. O'quvchi vazifani bajarish uchun turli ko'rinishdagi loyihamalar, gipotezalar tuzadi. Keyin o'qituvchi bilan vazifaning asliga solishtiriladi. Aslining javobi ishlanmasi bilan o'quvchining loyihasi muhokama qilish yo'li bilan to'g'ri bajarilgan loyiha aniqlanadi. Natijada o'quvchi o'zining faoliyat imkoniyatini qayta ko'rib chiqadi va uning shaxsiy qarashida o'zgarish ro'y beradi. Bu o'zgarishlar o'quvchining sezgisida, bilimida, iqtidorida, tajribasi kabilarda namoyon bo'ladi.

*Evristik o'qitish ochiq vazifa asosiga quriladi.* Barcha o'rganilayotgan mavzu elementlari ochiq shakldagi vazifada ifodalanishi mumkin. Masalan, valda aylanma harakat davrida vtulka teshigi (hamda valning o'zi ham) yemirilib ketishini oldini oladigan moslama loyihalansin. Yoki mashina va mexanizmdagi biror detal qo'pol hamda og'ir qilib ishlangan bo'lib, u detal ish jarayonida mashina ish unumini

pasayishiga sabab bo'layotgan bo'lsa, uni dizayn asosida qayta loyihalansin kabi masalalarning yechimini loyihalashda o'quvchi o'z rejasini tuzib chiqadi.

Evristik o'qitishda tayyor bilimlarni o'zlashtirish darajasini emas, ularga o'quvchining qanchalik ijodiy yondoshganligi nazorat qilinadi. O'quvchining shaxsiy sifatini rivojlanishi, uning o'rganayotgan sohasi bo'yicha ijodiy yutuqlari hamda ta'lism standartlaridan qanchalik olg'a o'tib borayotganligi tekshirilib, unga baho beriladi.

O'quvchining o'zini-o'zi ijodiy tomondan ro'yobga chiqarishi evristik o'qitishning eng yuqori masalasi hisoblanadi. Evristik o'qitish erkin rivojlanish matabiga asoslangan bo'lib, uning nazariyasi *evristik didaktika* hisoblanadi. Evristik ta'limga nazariya va texnalogiya *evristik didaktika* deyiladi. Evristika – o'qitish nazariyasi, maqsadi, prinsiplari va bunday ta'limgotning mazmuni hamda texnalogiyasi o'quvchi va o'qituvchida mahsulot (o'quvchining ijodiy ishning natijasi mahsuli) yaratish, o'rganayotgan sohasida olgan bilim va faoliyatidagi individuallikni ta'minlaydi.

Evristik ko'rinishdagi ta'limga asosiy masala, o'quvchiga o'zining individual harakat yo'lini, insoniyatning yutuqlariga mos keladigan va ularning o'sishini ta'minlaydigan sifatlarni tarbiyalash hisoblanadi. Bu yerda: hozirdagi ijod orgali kelajakni qurish va oldingilarni o'zlashtirish shiori amal qiladi.

Evristik o'qitish hamrohlik harakteriga ega. O'qituvchi har bir o'quvchining ta'limga sohasini egallashiga keng imkoniyat yaratib beradi. O'quvchi o'zining shaxsiy ijodiyotida maxsus yaratilgan evristik ta'limga vaziyatida, ular faoliyatida madaniyatli namunaviy hayot tarzini namoyish etish bilan birga o'zining individuallik ichki dunyosini ta'limiyl imkoniyatini rivojlantiradi.


Endi evristik o'qitish texnalogiyasi asosida chizmachilik darslarini tashkil qilishni ko'rib chiqaylik. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'limga yo'nalishi talabalari muhandislik grafikasi (chizmachilik) darslarida konstruksiyalash (loyihalash) asoslaridan ta'limga olishadi. O'rta maktab chizmachilik predmetida ham loyihalash mavzusiga oid darslar ajratilgan.

Quyida avval o'rta maktabda, so'ngra pedagogika oliy o'quv yurtida loyihalashga doir darslarni tashkil qilish haqida mulohaza yuritiladi. O'rta maktablarning 9-sinfida detalning shaklini o'zgartirishga oid grafik masalalar, detalning fazoviy holatini o'zgartirishga va qayta loyihalashga oid ijodiy grafik ishlarni tashkil qilish mavzularida loyihalash, dizayn asosida berilgan buyumni o'ziga jalb qila oladigan holda uning ko'rinishini go'zal va chiroyli hamda bejirim shaklda o'zgartirish, vaznni ham kamaytirish, yangi konstruktiv element kiritish, yangi foydali sifatlar berish yo'li orqali buyumning og'irligini kamaytirish, pishiqligini oshirish, ishlov berishni soddalashtirish, foydalanishda qulaylik hususiyatlarini hisobga olgan holda loyihalash so'ralsan.

Detalga kiritilgan o'zgartirish chizma orqali amalga oshirilsa, *chizmani qayta ijodiy loyihalash* deyliadi. Detal shaklini fikran o'zgartirish, uning qayta ijodiy loyihalangan holatini tasavvur qilish fikrlash qo'zg'aluvchanligini o'stiradi. Chizmada ijodiy loyihalash elementlarini kiritish orqali turli muammolarni yechish munkin bo'ladi.


Amaliyotdag'i detalning konstruktiv tuzilishi yoqimli va ko'r kam qilib o'zgartirilsa, vaznni ham kamaytirib, uni foydalanish uchun qulay va samarasi yuqori qilib qayta loyihalashga *dizayn* deyiladi. Dizayn so'zi inglizchada "Dezing" – chizma, rasm, loyiha degani.

Hozirda har bir narsani o'ziga jalb qiladigan, yengil, chiroyli va ko'r kam qilib tayyollashga dizayn talablariga javob beradigan darajada bajarilgan deyish qabul qilingan. Masalan, 6.1-rasm, a dagi detalning vazni (og'irligi)ni kamaytirish maqsadida uning shakli geometriyasi qisman dizayn talabida o'zgartirilgan. Natijada u 1.9-rasm, a, b, c va d lardagi ko'rinishga o'zgardi.



6.1- rasm

Keyingi masalada uchta teshik va kubning yaqqol tasviri berilgan (6.2-rasm, *a*). Birinchi teshikning yuqorisida ariqcha o‘yiq bo‘lib, kubning yaqqol tasvirida unga mos ariqcha o‘yiladi (6.2-rasm, *b*). Ikkinci teshik kvadratligicha tasvirlangan. Uchinchi teshikning pastki qismida katetlari o‘zaro teng to‘g‘ri burchak qirqilgan. Xuddi shu burchakka teng kubning *W* ga parallel tomonida o‘yiq qirqiladi (6.2-chisma, *b*).




6.2- rasm

Yoki geometrik jism kub shunday loyihalanishi lozimki, undan yasalgan model *H*, *V* va *W* lar o‘rnida berilgan teshiklar orqali tig‘iz o‘tsin degan vazifa berilgan bo‘lsa, o‘quvchi *V* tekislikdagi modelning olddan, *H* dagisidan ustdan va *W* dagisidan modelning chapdan ko‘rinishi tig‘iz o‘tishini ko‘z oldiga keltirib,

ijodiy izlanishlar olib boradi va bir qancha uzinishlardan keyin turlicha loyihalar yaratiladi. O‘qituvchi bilan olib borilgan muloqatlar natijasida to‘g‘ri javob aniqlanadi.

6.3-rasm, *a*, *b*, *c*, *d* larda mustaqil bajarish uchun shunday mazmundagi masalalar berilgan.




6.3- rasm

Vazifani bajarish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga yo‘naltiruvchi – avval, umumiy, keyin bevosita mavzuga yaqin evristik savollar berib, o‘quvchilarning refleksivtik hamda individuallik qobiliyatlarini ravshanlanishiga yordam berib turadi. Bunday yondashishda har bir o‘quvchi o‘zining oldindi olgan bilimlari asosida yangi ijodiy qarashlar orqali o‘zlarining shaxsiy fikrlarini berilgan fazifani loyihalash yordamida namoyon etadi.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida muhandislik grafikasi (chizmachilik) darslarida talabalarga konstruktorlik masalalari: texnik detallarni shakllantirish, detallarga o'lchamlar qo'yish texnologiyasi, qo'yim va o'tqazishlar, detallarga ishlov berish usullari texnologiyasi, mashina detallarining texnologiyalikligi, detallarni o'zaro birlashtirish usullari, inversiya, qo'yilgan vazifani turlicha yechish, mashinalarni loyihalashning asoslari kabi nazariy bilimlardan keyin amaliy mashg'ulotlarda berilgan sxema-rasm bo'yicha loyihalash (konstruksiyalash) kabi turli ko'rinishdagi masalalar bajariladi.

Misol sifatida richag (katta kuchni kichik kuch bilan muvozanatlaydigan oddiy mexanizm (detal) olinsin (6.4-rasm). U tayanch nuqtasiga ega bo'lgan qattiq jismdan iborat bo'lib, tayanch nuqtasidan o'tuvchi tekislikdagi kuchlar ta'sirida bo'ladi.




Agar kuchlar tayanch nuqtasining ikki tomonida joylashgan bo'lsa, muvozanatda bo'lishi uchun tayanch nuqtaga nisbatan olingan kuchlar, momentlar yig'indisi nolga teng bo'lishi kerak. Richagning *a* yelkasi uning *b* yelkasidan qancha katta bo'lsa, harakatlanuvchi kuch qarshilik kuchidan shuncha kichik bo'ladi. Bu richag qoruni. Bunda kuchdan qancha yutilsa, masofadan shuncha yutqaziladi.

Richagning tayanch nuqtasi *A*, yelkalaridagi *B* va *C* elementlari sxemasi berilgan (6.4-rasm, *a*). Ushbu sxemaga binoan richagning konstruksiyasi 6.4-rasm, *b* dagi ko'rinishda loyihalanadi.

Endi ashyoni tejash maqsadida *B* va

*C* elementlarini birlashtiruvchi tayanch elementi olib tashlansa, richag 4-rasm, *c* dagi ko'rinishda loyihalanishi mumkin. Yoki *A* va *C* yelkasi qatnashmasin deyilsa, 6.4-rasm, *d* dagi yoki *A* va *B* yelkalarsiz bajarilsa, 6.4-rasm, *e* dagi, yoki *B* va *C* ga *A* dan tik o'tkazib kuchlarni barobar taqsimlansa, 6.4-rasm-rasm, *f* dagi, yoki listli materialdan 6.4-rasm, *h* dagi ko'rinishda bo'ladi.

Yoki detallarni qisib turuvchi vintli moslamada kamchilik mavjud. Detalni chiqarib olish uchun vintni ko'p marta aylantirishga to'g'ri keladi. Moslamaning konstruksiyasiga shunday o'zgartirish kiritish kerakki, vintning bir yoki bir yarim marta aylanishidan so'ng detal osongina chiqib ketsin. Ushbu jarayon loyihalansin (6.5-rasm).



6.5-rasm

Bunday masalalarni qayta loyihalash jarayonida evristik o'qitish texnologiyasidan foydalanish tavsiya etiladi.

Talabalarga ushbu metodning qonun-qoidalariga asosan vaqt-i-vaqt bilan o'qitish shakliga mos umumiy maqsadli yo'naltiruvchi savollar hamda o'qitish

metodiga binoan aqliy hujum uyushtirish lozim. Qo'llanilayotgan o'qitishning shakli va metodi orqali talabalarda ijodiy rivojlanishni kuzatish mumkin. Ijodiy fikrlash esa o'quvchi va talabalarning fazoviy tasavvuri va tafakkurini rivojlantiradi. Bundan tashqari talabalarning har biriga individual vazifalar berilib, ularda shaxsiylik hissi uyg'otiladi. Berilgan masalalarning individuallikligi talabada o'z-o'zini ijodiy rivojlanish, shaxsiy g'oyalarni ro'yobga chiqarish, turli gipoteza, loyihalash ishlarini bajarishni o'zlashtirishga imkon yaratiladi. Natijada intelektual salohiyatlari yoshlar yanada ko'payishiga erishiladi.

## ADABIYOTLAR

1. *Rahmonov I., Valiyev A.N.* Chizmachilik. T., «Voris nashriyot», 2011.
2. *Rahmonov I.* Chizmalarни chizish va o‘qish. T., «O‘qituvchi», 1992.
3. *Rahmonov I.* Chizmachilikdan test. T., «O‘qituvchi», 1994.
4. *Rahmonov I.* Chizma geometriya kursi va texnikaviy grafikidan testlar. T., «O‘qituvchi», 1996.
5. *Rahmonov I., Abdurahmonov A.* Chizmachilikdan ma’lumotnoma. T., «A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi», 2005.
6. *Murodov Sh.K., Ashirboyev A.O.* Chizma geometriya va chizmachilikdan ruşcha-o‘zbekcha lug‘at. T., «Fan», 2008-192 bet.
7. *Adilov P., Ashirboyev A., Abdurahmonov A., Valiyev A., Qorato耶ev A., Yah‘yaeva R.* Chizmachilik (ma’ruzalar matni). T., “TDPU rizografi”, 2000-90 bet.
8. *To‘xtayev A. va Abramyan Y.* Mashinasozlik chizmachiligidan ma’lumotnoma, T., “ILM ZIYO”, 2010-262 bet.
9. *Begmatov E. va boshqalar.* O‘zbek tilining izohli lug‘ati. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 5 jildli, 2006-2008 yy.
10. ЕСКД, Общие правила выполненная чертежей, М., «Стандарты», 1970... 1981, 1991.
11. *Гервер В.А.* Творческие задачи по черчению. М., «Просвещение», 1991-128 стр.
12. *Василенко Е.А. и другие.* Практикум по черчению. М., «Просвещение», 1982-176 стр.
13. *Суровор С.Г., Суровова Н.С.* Машинастроительное черчения в вопросах и ответах М., «Машинастроение», 1984.
14. *Большанин И.В.* Конструирования в курсе черчения Томск, 1987.
15. *Василенко Е.А. и др.* Карточки-задания по черчению для 8 класса. М., «Просвещение», 1995.
16. *Виногродов В.М.* Методика факультативных занятий по черчению. М., «Просвещение», 1999.
17. *Ройтман И.А., Эйдэлс Л.М.* Методика практикума по машинастроительному черчению. М., «Просвещение», 1979.

## MUNDARIJA

So‘z boshi .....	3
Kirish .....	6
<b>I BOB. CHIZMACHILIK FANIDA LOYIHALASH PRINSIPLARI</b>	
I.1. Fazoviy tafakkur qilish orqali fazoviy tasavvurni o‘stirish.....	9
I.2. Oddiy geometrik jismni ko‘p elementli model (detal) ko‘rinishida shakllantirish. Rekonstruksiya.....	14
I.3. Texnik detallarni shakllantirish.....	24
I.4. Detallarga mexanik ishllov berish usullari.....	28
I.5. Konstrukturlik (loyihalash) masalalari.....	30
I.6. Mashina detallari va biriktirishning texnologiyalikligi. Inversiya.....	33
I.7. Qo‘yilgan vazifani turlicha yechish.....	41
I.8. Mashinalarni loyihalashning asoslari.....	42
I.9. Berilgan chizma-sxema bo‘yicha konstruksiyalashda texnik talablarni loyihalash.....	44
I.10. Salnikli, klapansli va probkali qurilmalarning chizmasini hamda chambarakni shpindelga biriktirish usullarini chizish.....	48
<b>II BOB. KONSTRUKSIYALASHGA OID BAJARILADIGAN VAZIFALAR</b>	
II.1. Fazoviy tasavvurni rivojlantirishga qaratilgan loyihalashga oid mashqlar...	55
II.2. Bilim, ko‘nikmani tekshiruvchi va fazoviy tasavvurni rivojlantiruvchi mustahkamlash mashqlari.....	73
II.3. Berilgan sxema-chizma bo‘yicha qo‘yilgan vazifani turlicha yechishga oid masalalar.....	86
II.4. Mustahkamlash uchun nazariy savollar va testlar.....	135
II.5. Loyihalash darslarida “Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi”ning amaliy tatbig‘i.....	149
II.6. Evristik o‘qitish texnologiyasi va uning chizmachilikni o‘qitishdagi amaliy tatbig‘i.....	154
Adabiyotlar.....	162

**Buyurtma 81. Adadi 100. Hajmi 10,25 b/t.  
Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida nashr qilindi.**